



# O‘ZBEKISTON – ITALIYA: KO‘P QIRRALI HAMKORLIK YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni 28-may kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.



Samarqand xalqaro aeroportida Bosh vazirni davlatimiz rahbari kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tordii.

Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Meloni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Samarqand shahridagi Registon maydonida bo‘ldi.

UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan, dunyoga mashhur Registon maydoni buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyatini aks ettiruvchi mamlakatimizning asosiy tashrif qog‘ozidir. Majmuadagi Mirzo Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari o‘zining ulug‘vorligi, boy tarixi va betakror me‘morchiligi bilan yurtimiz

mehmonlarida chuqur taassurot qoldirmoqda.

Oliy martabali mehmonga ushbu Sharq shaharsozligi durdonasining qurilish tarixi, me‘moriy yechimlari va bezaklarining o‘ziga xos jihatlari, ushbu maskan bilan bog‘liq muhim voqealar va shaxslar, shuningdek, o‘zbek xalqining madaniy merosi haqida batafsil ma‘lumot berildi.

So‘ngra davlat rahbarlari “Silk Road Samarkand” xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik bog‘ida bo‘ldilar. Xalqimizning boy madaniy merosi, hunarmandchilik va amaliy san‘atini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar tomosha qilindi. Raqs jamoalarining chiqishlaridan iborat madaniy dastur namoyish etildi.

Dunyo tarixchilari, sharqshunolar tilida

shunday gap bor: G‘arbda — Rim, Sharqda — Samarqand. Bu bilan ikki mintqa sivilizatsiyasida ushbu ikki qadimiy shahar qanchalik muhim rol o‘ynaganini e‘tirof etiladi. Haligacha O‘zbekiston va Italiya tarixchilari, arxeologlari Samarqand va Rim misolida davlatlar o‘rtasidagi aloqalar o‘tmishi bilan qiziqadi, bu borada tadqiqotlar olib boriladi. Jumladan, bir necha yildan buyon o‘zbekistonlik va italiyalik arxeologlar Samarqand shahri yaqinidagi Kofirqal’a arxeologik yodgorligini o‘rganmoqda.

Ilk o‘rta asrlarga oid mazkur obida Samarqand hukmdorlarining shahar tashqarisidagi qarorgohi bo‘lgan. Bu yerdan V-VIII asrlarga oid kumush tangalar, muhr va boshqa ashyolar topilgan.

2023-yilda yurtimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella mazkur qo‘shma ekspeditsiya faoliyati bilan tanishib, ular ishiga muvaffaqiyat tilagan edi.

Bugungi kunda yurtimiz oliy ta‘lim muassasalari Italiya universitetlari bilan ham faol hamkorlik qilmoqda. Buning natijasida oxirgi 2 yilda 100 nafardan ortiq professor-o‘qituvchilarimiz Italiya oliy o‘quv yurtlarida stajirovka o‘tadi. Hozir mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida 700 nafardan ortiq talaba italyan tilini o‘rganmoqda. Bugungi kunga kelib ikki mamlakatning oliy ta‘lim muassasalari 50 dan ortiq o‘zaro kelishuvlar asosida hamkorlik qilmoqda.

Yaqinda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bo‘lib o‘tgan davra suhbatida ikki davlatdagi o‘tuzga yaqin oliy ta‘lim muassasalari rektorlari, vazirlik va idoralar vakillari ishtirok etib, hamkorlikning kelgusi istiqbollari muhokama qildi. Oliy ta‘lim muassasalari, vazirlik va idoralar o‘rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Darvoqe, bir necha ming yillik tarixga ega Rim dunyoning qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lgani bois, madaniy va siyosiy muloqotlarda “Barcha yo‘llar Rimga eltadi” degan ibora paydo bo‘lgan. Bugun bu ta‘rifni yer yuzining sayqali, Sharq va G‘arbni bog‘lagan qadimiy kentga nisbatan qo‘llab, barcha yo‘llar Samarqandga boshlaydi, deb aytisak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 29-may kuni bo‘lib o‘tadi.

Samarqand shahridagi oliy darajadagi muzokaralarda O‘zbekiston — Italiya strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion hamkorlik va gumanitar almashinuv loyihalarini ilgari surish diqqat markazida bo‘ladi.

Yakunda ikki tomonlama bitimlar to‘plamini imzolash ko‘zda tutilgan.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**  
**G‘olib HASANOV,**  
**O‘ZA maxsus muxbirlari**

## IMOM BUXORIY MAJMUASI MA‘RIFAT, TARBIYA, IBRAT O‘CHOG‘I BO‘LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-may kuni Samarqandga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Qur‘on oyatlari tilovat qilindi.

Butun islom olamida Imom Buxoriyning hurmati yuksak, uning maqbarasini ko‘rish istagidagi insonlar ko‘p. Shu bois, ziyoratchilarga sharoitlarni kengaytirish maqsadida bu yerda yangi majmua barpo etilmoqda.

Tashrif chog‘ida Prezidentimiz qurilishning borishini ko‘zdan kechirdi.

Majmuaning umumiy maydoni 44 gektar etib kengaytirilgan. Hozirgi kunda mo‘tabar

maqbara, 10 ming kishilik masjid, 4 ta minora qurib bitkazilgan.

Yangi majmua ziyorat bilan birga ma‘rifat, tarbiya, ibrat o‘chog‘i bo‘ladi. Muzey, ma‘muriyat, mehmonxona va boshqa xizmat ko‘rsatish binolarini o‘z ichiga oladi. Peshtoqlar va ayvon devorlariga “Sahih Buxoriy”dan hadislar bitiladi.

Davlatimiz rahbariga majmuada bo‘lajak sharoitlar haqida axborot berildi. Maqbara hovlisi va xiyobonlarga ko‘proq daraxtlar ekish zarurligi aytiladi.

O‘ZA

Elchi Pyergabriele Papadia de Bottini:

## “ITALIYA BOSH VAZIRINING O‘ZBEKISTONGA TASHRIFI – IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARDA BURILISH NUQTASI”

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Italiya Bosh vaziri Jorja Meloni 28-29-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi. “Dunyo” AA muxbiri tashrif arafasida Italiyaning O‘zbekistondagi elchisi Pyergabriele Papadia de Bottini bilan ikki tomonlama munosabatlarning joriy holati va istiqbollari xususida suhbatlashdi.



— Elchi janoblari, 2023-yil 7-9-iyun kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Italiyada bo‘lgan edi. 2023-yil 9-11-noyabr kunlari esa Italiya Prezidenti Serjo Mattarella rasmiy tashrif bilan yurtimizga keldi. Salmogli natijalarga boy ushbu tashriflar ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikda yangi sahifa ochdi. Mazkur muloqotlarning mantiqiy davomi sifatida bugun Italiya Bosh vaziri Jorja Melonini O‘zbekistonda qarshi olaymiz. Shu nuqtayi nazardan, Italiya Bosh vazirining ushbu tashrifidan qanday natijalar kutilmoqda?

— To‘g‘ri ta’kidladingiz, 2023-yil Italiya va O‘zbekiston ikki tomonlama munosabatlarida haqiqatan muhim voqealarga boy va o‘ta ahamiyatli yil bo‘ldi. O‘zaro munosabatlarimiz tarixida ilk bor bunday faol diplomatik almashinuv amalga oshirildi. Ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi global beqarorlik sharoitida bu hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Italiya va O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun Osiyo va jahon miqyosida ham konstruktiv muloqot hamda barqarorlikni targ‘ib etayotgan muhim sheriklarga aylanmoqda.

Davomi 2-betda

## 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

## BAXTLI BOLALIK INDEKSI

Bolaligimda uydagilar hamrohligida tuman markaziga borganimizda bir manzil rosa o‘ziga chorlar edi. Alvon lentalar osilgan, ko‘m-ko‘k hovuzlar va ayvonlari bezatilgan, o‘yinchoqlari bisyor ko‘rkam maskan. Unda doim menga tengdosh bolalar gavjum bo‘lar, men esa shodon o‘ynab yurgan tengdoshlarimniki bilan o‘z sharoitimizni taqqoslar, ular bilan hayotiy tafovutimizni chamalardim. O‘sha maskan, ya‘ni bolalar bog‘chasi menga va qishloqdagi tengqurlarimga allaqanday sirli va orzuli bo‘lib tuyulardi. Sababi o‘shanda bu kabi baxtli bolalar maskanlari, maktabgacha ta‘lim dargohlari yetishmasdi. Shu sabab qishloqlardagi ko‘p bolalar ushbu tizimdan bebahra qolar, bu esa ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltirardi.

Davomi 2-betda



2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili

## KELAJAK AVLODLAR UCHUN BARQAROR, XAVFSIZ VA FAROVON DUNYO YARATISH MAQSADI

O‘ZBEKISTONNI JAHONDA MUHIM EKOLOGIK LOYIHALAR TASHABBUSKORIGA AYLANTIRMOQDA

Bu yil bahorning so‘nggi oyi nisbatan issiq keldi, yog‘ingarchilik bo‘lmadi hisobi. Ayniqsa, may o‘rtasida kuzatilgan anomal issiq va chang-bo‘rondan hamma behalovat bo‘ldi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, mintaqamizda may oyida bunday anomal issiq oxirgi yuz yillikda deyarli kuzatilmagan.

Issiq harorat va chang-to‘zonli havo faqat inson hayoti va salomatligiga emas, barcha tirik jonzorlar, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Shu bois, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va tarmoqlarga zararini kamaytirish maqsadida tegishli tizimlar favqulodda tartibda ishlashiga to‘g‘ri keldi. Shu yo‘sinda ish hamjihatlik va uyushqoqlik bilan tashkil etilishi natijasida tabiat inijligining ta’siri tezda bartaraf etildi.

Davomi 3-betda





Elchi Pyergabriele Papadia de Bottini:

# “ITALIYA BOSH VAZIRINING O‘ZBEKISTONGA TASHRIFI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARDA BURILISH NUQTASI BO‘LADI”

Boshlanishi 1-betda

Bosh vazir Jorja Melonining O‘zbekistonga bu galgi tashrifi mazkur muloqotni yanada rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Tashrifning Samarqandda bo‘lib o‘tayotgani ham bejiz emas. Rim va Samarqand o‘z davridagi buyuk davlatlar poytaxtlari bo‘lgan. Bu tarixiy bog‘liqlikni eslab o‘tish nafaqat faxr tuyg‘usini, balki o‘zaro ildizlarni teran anglash zarurligini anglatadi.

Qadimiy rishtalarning qayta jonlanayotganini kuzatish shaxsan men uchun juda qiziqarli. Ishonch bilan aytmoqchimanki, ushbu tashrif O‘zbekiston — Italiya munosabatlarida yangi burilish nuqtasiga aylanadi. Tashrif doirasida qishloq xo‘jaligi, strategik xomashyolar va ilk bor migratsiya sohasidagi hamkorlikni qamrab olgan qator muhim ikki tomonlama hujjatlar to‘plami imzolaniishi rejalashtirilgan.

— O‘zbekiston va Italiya hamkorlik munosabatlarida salmoqli natijalar qayd etilmoqda, o‘zaro manfaatli loyihalar soni ham ortib boryapti. Umuman olganda, hamkorlik dinamikasi jadal tus olganini ko‘ryapmiz. Siz bu borada aynan qaysi loyiha yoki tashabbuslarni alohida ta’kidlagan bo‘lardingiz?

— Iqtisodiy va savdo aloqalari haqida gap ketganda, albatta, Marko Poloni eslash o‘rinli. U XIII asrda Venetsiyadan yo‘lga chiqib, Samarqand va Buxorogacha yetib kelgan. U hech qanday qurolsiz, xavf-xatarsiz sayohat qilgan. Bu tarixiy aniq voqea bugungi savdo va iqtisodiy aloqalarning ma’naviy poydevorini tashkil etadi, ya’ni savdo doimo tinchlik va o‘zaro hurmatga asoslanadi.

Shu o‘rinda iqtisodiy hamkorligimizdagi yuqori sur‘atlarni alohida ta’kidlar ekanman, Bosh vazir Jorja Meloni tashrifi doirasida Italiyaning yirik sanoat kompaniyalari bilan qator kelishuvlar imzolaniishi ko‘zda tutilgan. Ularning ayrimlari O‘zbekistonda allaqachon faoliyat yuritmoqda.

Moliyaviy yo‘nalishda ham muhim hujjatlar imzolaniishi kutilyapti. Ayniqsa,



loyihalarni moliyalashtirish bo‘yicha kredit kafolatlari tizimi yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Ushbu masalalarni hal qilish maqsadida anglashuv memorandumlari tayyorlanyapti. Bugungi kunda Italiya O‘zbekistonning iqtisodiy hamkorlari orasida 15-o‘rinni egallab turibdi. Bizning maqsadimiz kuchli o‘ntalikka kirish.

— Qadimiy Rim hamda bugungi O‘zbekiston hududi insoniyat sivilizatsiyasining muhim beshiklaridan biri hisoblanadi. O‘zbek va italyan xalqlarining tarixiy ildizlari zamonaviy aloqalarga qay darajada ta’sir ko‘rsatmoqda? Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy va gumanitar aloqalar, jumladan, ikki davlat uchun salohiyatli soha hisoblangan turizm va ta’lim borasidagi fikrlaringiz ham biz uchun qiziq.

— Ha, madaniy-gumanitar hamkorlik ustuvor yo‘nalishlarimizdan biridir. Yaqinda Venetsiyada bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida yagona ishtirokchi — O‘zbekiston pavilyonini ko‘rish baxtiga muassar bo‘ldim. U Italiya pavilyoniga tutash joylashgan bo‘lib, “Quyosh markazi” konsepsiyasiga asoslangan. Men O‘zbekiston pavilyonida ekologiya, ilm-fan va san’at uyg‘unligini ko‘rdim.

Akademik almashinuvlar ham jadal rivojlanmoqda. Xususan, joriy yilda o‘zbekistonlik 27 talaba Italiyada tahsil

olish uchun grant yutdi. Bu ilmiy muloqotni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Quvonarlisi, o‘zbekistonlik yoshlar Italiyada o‘qish va amaliy tajriba to‘plash istagini bildiriyapti. Biz esa o‘zbek yoshlarini har doim iliq qabul qilishga tayyormiz.

Hozir O‘zbekistonda texnik mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha faol ishlanyapti, chunki bu yerda zamonaviy ta’lim tizimi mavjud. Masalan, Turin politexnika universiteti faoliyati misolida aytishim mumkinki, bu yil o‘zbek yoshlaridan 125 nafari diplom oldi va men ularning bitiruv marosimida shaxsan ishtirok etdim. “Siz o‘zbek muhandisiz, bu — faxr. Shu bilan birga, siz Italiya bilan hamkorlik yo‘nalishida ham faol ishtirok etyapsiz — demak, Italiya ham sizdan faxrlanadi”, degan edim diplom topshirish marosimidagi nutqimda.

Italiya jamiyati O‘zbekiston haqida tobora kengroq tasavvurga ega bo‘lib boryapti. Turizm sohasida ham yuqori natijalar qayd etilmoqda. Ayni paytda Yevropa mamlakatlari orasida O‘zbekistonga eng ko‘p sayyoh Italiyadan kelyapti. Bu ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro ishonchning amaliy ifodasidir.

— Italiya Yevropa Ittifoqida alohida o‘ringa ega davlatlardan biri. Xorijiy ekspertlar tomonidan O‘zbekistonning ham Markaziy Osiyodagi o‘ziga xos roli bot-bot ta’kidlanmoqda. Shu nuqtayi nazaridan, ikki mintaqada muayyan ma’noda muhimlik kasb etayotgan davlatlarning o‘zaro yaqinligi va ko‘p qirrali hamkorlikka intilishi qay darajada ahamiyatli deb o‘ylaysiz? Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, joriy yilning 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida birinchi Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo sammiti bo‘lib o‘tdi. Ikki qit’a o‘rtasidagi munosabatlarda yangicha yondashuvlar, shubhasiz, manfaatli tashabbuslarga yo‘l ochadi, shunday emasmi?

— Avvalo, Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammitning muvaffaqiyatli tashkil etilgani munosabati bilan O‘zbekiston rahbariyatini

chin yurakdan tabirklayman. Men ushbu anjumanda shaxsan ishtirok etdim. Tadbir yuqori tashkiliy darajada bo‘lib o‘tdi, uning yakuniy bayonoti mazmunan va siyosiy yondashuvi jihatidan alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Sammit, ayniqsa, O‘zbekistonning va to‘g‘ridan to‘g‘ri Samarqandning mintaqaviy hamda xalqaro miqyosda turgan o‘rnini yana bir bor yaqqol namoyon etdi. Sammit o‘tkaziladigan joy sifatida Samarqandning tanlanishi ramziy va o‘rinli qaror bo‘ldi deb hisoblayman.

Yevropa Ittifoqi tajribasi ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab global va mintaqaviy masalalar faqat ko‘p tomonlama muloqotlar orqali hal etilishi mumkin. Shu bois, mintaqaviy hamkorlik formati ana shunday dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun eng qulay maydon hisoblanadi.

Masalan, suv resurslarini boshqarish masalasini olsak. Italiya bu yo‘nalishda ilg‘or texnologiyalar va boy tajribaga ega davlatlardan biri. Sardiniya orolining ayrim hududlari O‘zbekistonning qator viloyatlariga geoklim jihatidan juda o‘xshash. Demak, ikki mintaqada ham suvni to‘plash, tejash va oqilona boshqarish masalasi birdek dolzarb.

Italiya qadimiy Rim davridan beri suvni boshqarish texnologiyalarini rivojlantirib kelmoqda. Bugungi kunda ham Italiya kompaniyalari ushbu sohada jahon darajasidagi yechimlarni taklif qilayapti. Shu bois, italyan texnologiyalari bilan o‘zbek tomoni imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, ularning hamkorlikda qo‘llanilishi ikki tomonlama sheriklikni yanada samarali va natijador qiladi. Chunki ikki mamlakatning ehtiyojlari, imkoniyatlari va maqsadlari ko‘p jihatdan o‘xshash. Shuning uchun biz bu yo‘nalishda kuchlarimizni birlashtirishimiz, texnologik va tashabbuskorlik salohiyatimizni umumiy maqsadga safarbar etishimiz lozim deb o‘ylayman. Kelgusida birgalikda qilinadigan ishlarimiz bu kabi amaliy masalalarga yechim topish orqali yanada mustahkamlanishiga ishonaman.

“Dunyo” AA

## AKADEMIK AZIMBOY SA’DULLAYEV

Mamlakatimiz ilm-fani og‘ir judolikka uchradi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Azimboy Sa’dullayev 2025-yil 28-may kuni 78 yoshida vafot etdi.

A.Sa’dullayev 1947-yil 9-yanvarda Xorazm viloyatining Shovot tumanida tug‘ildi. 1969-yilda Moskva davlat universitetini matematika mutaxassisligi bo‘yicha tamamladi. Mazkur universitet aspiranturasida tahsil olib, dastlab nomzodlik, so‘ngra doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1989-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, 1995-yilda haqiqiy a‘zosi etib saylandi.

A.Sa’dullayev o‘zining 55 yillik mehnat faoliyati davomida Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) o‘qituvchisi, dotsenti, kafedra mudiri, fakultet dekani, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti katta ilmiy xodimi, Urganch davlat universiteti rektori, Xorazm Ma’mun akademiyasi raisi kabi mas’ul lavozimlarda samarali faoliyat olib bordi hamda o‘zining yuksak ilmiy-pedagogik va rahbarlik salohiyatini namoyon etdi.

Mashhur matematik olimning ilmiy ishlari mamlakatimiz va xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan. Ayniqsa, uning AQSH olimlari bilan hamkorlikda yangi yo‘nalish bo‘lgan kompleks potentsiallar nazariyasi asosini yaratgani, hozirgi kunda ushbu ishlanma amaliyotda keng qo‘llanilayotgani fan olamida yaxshi ma’lum.



Ayni paytda mamlakatimiz bo‘ylab mahalla raisligiga saylovlar bo‘lib o‘tmoqda. Joriy yilning may-iyul oylarida o‘tkazilishi belgilangan jarayon Navoiy viloyatida ham izchil tashkil etilmoqda.

## MAHALLA RAISLIGIGA MUNOSIB NOMZODLAR SAYLANMOQDA

Keyingi yillarda mahallani jamiyat boshqaruvining xalq qadriyatlariga asoslangan tizimi sifatida rivojlantirish uchun ko‘plab qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Ularga o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritildi. Albatta, nomzodlardan “mahalla yettilligi” xodimlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, aholi bilan yaqin muloqot o‘rnatish, hududdagi muammolarni hal etish, tashabbuskorlik, fidoyilik, katta tajriba va salohiyat talab etiladi.

Shundan so‘ng yopiq ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilgan saylov natijalariga ko‘ra, mahalla raisligi uchun Dilnoza Qurbonovaga ishonch bildirildi. — Viloyatimizda joriy yilning may-iyul oylarida 330 ta mahallada saylov o‘tkazilishi belgilangan, — deydi O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig‘i G‘ofur Aliyev. — Shu kunga qadar 171 ta mahallada saylov bo‘lib o‘tdi. Saylov jarayoni uchun viloyatda 29 a‘zodan iborat hududiy komissiya, 11 ta shahar va tumanda 207 a‘zodan iborat komissiya va 2908 a‘zodan iborat ishchi guruh tuzilgan. Saylovni adolatli, shaffof va qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkazish uchun barcha sharoit yaratilgan.

Viloyatdagi saylovni o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar va tumanlar ko‘maklashuvchi komissiyalarining qarori bilan fuqarolarning vakillik normasi ham belgilab berildi. Unga ko‘ra, joriy yilgi saylovlarda 88 ming 231 vakil ishtirok etishi ko‘zda tutilgan. Saylovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida viloyatdagi 330 ta mahallada saylovlar o‘tkaziladigan sana va vaqt bo‘yicha reja-grafik ishlab chiqilgan. Ayni vaqtga qadar reja asosida tashkil etilayotgan saylov jarayonlarida ishonch bildirilib, saylangan mahalla raislari kelgusidagi faoliyati uchun maqsadini belgilab olib, dasturlarini takomillashtirmoqda.

Muhimi, mahalla raisligiga saylovlar qonunchilik asosida xolis va muqobilik tamoyillari ta’minlangan holda o‘tmoqda. Fuqarolar ham o‘z mahallasi kelajagiga befarq bo‘lmay, jarayonlarda faol ishtirok etib, munosib nomzodlar saylanishi uchun o‘z vakillariga ishonch bildirmoqda. Tashabbuskor va katta hayot tajribasiga ega yangi mahalla raislari kelgusida xalq farononligi va yurt ravnagi yo‘lida fidokorona xizmat qilishi shubhasiz.



Iste’dodli olimning 200 dan ortiq ilmiy maqolalari, 15 ta monografiyasida matematika sohasining ko‘plab dolzarb masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

AkademiK A.Sa’dullayev jonkuyar va talabchan ustoz sifatida ko‘plab yoshlarga ta’lim-tarbiya berdi. Uning rahbarligida o‘nlab fan doktori va fan nomzodlari tayyorlandi.

A.Sa’dullayev 1995-2004-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati sifatida samarali faoliyat olib borib, qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish, parlament nazorati mexanizmlarini takomillashtirishda jonbozlik ko‘rsatdi.

AkademiK A.Sa’dullayevning mamlakatimiz ilm-fani va ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, u 2020-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Taniqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Azimboy Sa’dullayevning xotirasi qalbimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, SH. AYUPOV



Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

## BAXTLI BOLALIK INDEKSI

Boshlanishi 1-betda

O‘rganish va ta’lim olish bolalar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar inson hayotidagi axborot va ma’lumotlarning qariyb 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda egallashini tasdiqlagan. Bu maktabgacha ta’lim uzluksiz o‘qitish tizimining asosiy bo‘g‘ini ekanini yana bir karra isbotlaydi.

Bilimsevarlikka poydevor qo‘yishda maktabgacha ta’lim juda muhimligi shu yil 15-may kuni maktab ta’limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasini yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham alohida ta’kidlandi.

Ayni paytda yurtimizda davlatga tegishli 7000 ta va xususiy 31 mingdan ziyod bog‘cha faoliyat yuritayotgani, olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olingani va keyingi yili bu ko‘rsatkich 100 foizga chiqishi qayd etildi. Endi ilg‘or xorijiy tajriba asosida maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlari o‘zaro uyg‘unlashadi. Buning uchun bog‘cha bolalarini matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo‘nalishlarida tanqidiy va kreativ fikrlashga o‘rgatadigan dasturlar ishlab chiqildi. Shuningdek, bog‘cha tarbiyachilarining malakasi, mahorati va psixologik tayyorgarligini oshirish uchun kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etiladi.

Qishloq bolalari uchun orzu bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimi qamrovi sustligi sabab bu bosqichdagi bilimlardan ko‘p bolalar bebahra qolar edi. Ammo keyingi yillarda maktabgacha ta’limni an’anaviy shaklda ham, yangi innovatsion usullarda ham rivojlantirish davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Birgina Samarqand viloyati misolida olsak, bugun maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qamrovi 2017-yilga nisbatan 2,5 barobar o‘sib, 74,3 foizga yetkazilgan fikrimizning birinchi tasdiq‘idir. Sohada nodavlat sektor ulushi 2017-yilda 1 foiz bo‘lgani holda ayni paytda bu ko‘rsatkich qariyb 44,8 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa hududlarda maktabgacha ta’lim qamrovini yanada oshirish mumkinligini ko‘rsatmoqda. O‘tgan davrda bir yillik maktab ta’limiga tayyorlov guruhlariga 32 mingdan ortiq 6



yoshli bola jalb qilinib, qamrov 40 foizdan 95 foizga yetkazildi.

Maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini kengaytirish maqsadida bog‘cha yoshidagilar qamrovi past bo‘lgan olis va chekka Nurobod, Qo‘shrabot, Bulung‘ur, Kattaqo‘rg‘on, Pastdarg‘om va Urgut tumanlarida “Aqlvoy” loyihasi doirasida 7 ta “Isuzu” rusumli avtobusda 40 ta mobil guruhga 600 dan ziyod bola qamrab olindi.

Shu bilan birga, bir oiladan 2 va undan ortiq bola qatnagan hollarda 30 foizgacha imtiyoz berilganini xalqimiz katta xursandchilik bilan qabul qildi.

Shuningdek, kam ta’minlangan, ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalar farzandlari hamda imkoniyati cheklangan bolalar uchun Toyloq pedagogika kolleji negizida “Ilk rivojlantirish markazi” tashkil etilib, uyda maktabgacha ta’lim berish modeli joriy etildi. Viloyat



bo‘yicha “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan kam ta’minlangan, ehtiyojmand oila vakillarining 5271 farzandi oylik to‘lovdan ozod qilingan.

Shu orqali yashash hududi, turmush sharoitidan qat’i nazar, har bir bolaga zamonaviy muhitda ulg‘ayish imkoniyati taqdim etilmoqda. Bu jarayonda yangi turdagi bog‘chalarda bolalarning yoshiga mos jihozlar o‘rnatilyapti, o‘yin va dam olish burchaklari, ochiq sport maydonchalari tashkil qilinayapti. Bu esa bolaning faolligi, ijodiy qobiliyati va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Muassasalarda faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar malakasi muntazam oshirilib, zamonaviy pedagogik usullardan foydalangan holda ta’lim-tarbiya jarayoni samarali yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu bilan birga, o‘qitish jarayonida ota-onalar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilgan, bolalarning har tomonlama sog‘lom rivojlanishida oila bilan muassasa o‘rtasidagi hamijhatlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘lidagi chora-tadbirlar bolalar uchun qulay, xavfsiz va rag‘batlantiruvchi muhit yaratib, kelajak avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib ulg‘ayishiga zamin yaratmoqda. Bu esa yangi O‘zbekistondagi baxtli bolalik indeksi — ta’lim-tarbiya mezonlarida aks etib, jamiyatimizning yuksak insoniy qadriyatlarga sodiq ekanini namoyon qilib boraveradi.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist





2025-yil — Atrof-muhitni asrash va  
“yashil iqtisodiyot” yili

# KELAJAK AVLODLAR UCHUN BARQAROR, XAVFSIZ VA FAROVON DUNYO YARATISH MAQSADI

## O‘ZBEKISTONNI JAHONDA MUHIM EKOLOGIK LOYIHALAR TASHABBUSKORIGA AYLANTIRMOQDA



**Bahor XIDIROVA,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

### Boshlanishi 1-betda

Biroq bu holat barchamizni tabiat barqarorligi yo‘lida yana bir karra ogoh, hushyor va hamijhat bo‘lishga chorladi. Zero, olimlarning tasdiqlashicha, bugun dunyoda ro‘y berayotgan global ekologik muammolarga inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilishi asosiy sababdir.

Ana shunday salbiy omil ta‘sirida so‘nggi yillarda yer yuzida o‘rmonlar maydoni keskin kamaymoqda, cho‘lanlash kuchayib, noyob turlar yo‘qolib ketaypti. Suv, havo, tuproq ifloslanmoqda. Global iqlim o‘zgarishi ta‘sirida ob-havoda anomol holatlar, toshqin, to‘fon singari tabiiy ofatlar ko‘payib boryapti. Bularning oqibati insoniyatning hayot tarziga salbiy ta‘sir etyapti. Sifatsiz suv va oziq-ovqat iste‘mol qilinishi natijasida kasalliklar ko‘paymoqda. Bundan, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami — bolalar va onalar, keksalar ko‘proq jabr chekyapti. Buning oldini olish va hayot davomiyligini ta‘minlashning birdan-bir yo‘li tabiatga munosabatimizni o‘zgartirish, uning zaxiralardan to‘g‘ri foydalanishga erishishdir.

Jahon hamjamiyati bu borada muhim chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Yaqinda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan yana bir muhim rezolyutsiya qabul qilindi. “O‘rmonlarni barqaror boshqarish asosida o‘rmonlarni ko‘paytirish va qayta tiklash bo‘yicha barqaror dekada” deb nomlangan rezolyutsiyaning asosiy tashabbuskorlaridan biri O‘zbekiston bo‘lganini alohida ta‘kidlash lozim.

Aytish joizki, so‘nggi yillarda mamlakatimiz tashabbusi bilan BMTning o‘ndan ziyod rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatlarning muayyan qismi bugungi kunda sayorimiz barqarorligini ta‘minlashda dolzarb bo‘lgan ekologik masalalarni hal etishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Navbatdagi ana shunday hujjat asosini Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Atrof-muhitni muhofaza qilish va “yashil iqtisodiyot” yili davlat dasturi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi hamda “Markaziy Osiyoning “yashil” belbog‘i” ko‘chat ekish aksiyasi tashkil etadi.

Rezolyutsiya 2027-2036-yillarni butun dunyo bo‘ylab o‘rmonlarni ko‘paytirish va qayta tiklash bo‘yicha harakatlar o‘n yilligi deb e‘lon qilish to‘g‘risidadir. O‘rmonlarni ko‘paytirish uchun kuch va resurslarni safarbar etishga chaqiriladi. Barcha davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xususiy sektor va ilmiy hamjamiyatga harakatlar o‘n yilligini to‘g‘ri amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish tavsiya etiladi.

Hujjati 155 ta davlat delegatsiyalari qo‘llab-quvvatladi. Dunyoning barcha mintaqalaridagi 80 dan ortiq mamlakat hammuallif bo‘ldi. Ular O‘zbekiston tashabbusini o‘z vaqtida va ekologik muammolarni hal etishda dolzarbligini inobatga olgan holda olqishladi.

Mutaxassislar fikricha, rezolyutsiya BMTning iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, kambag‘allik, suv tanqisligi va qurg‘ochilik kabi ko‘plab global muammolarga ekologik toza yechim topishga qaratilgan sa‘y-harakatlariga ulkan hissa qo‘shadi.

### “Yashil taraqqiyot” umummilliy harakatga aylandi

Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘shirishning resurslar tejamliligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tishdir. Shu maqsadda 2025-yil yurtimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilindi. Davlat dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar davom ettirilib, yurtimizda kam uglerodli rivojlanish

bo‘yicha uzoq muddatli strategiya va “yashil” moliyalashtirish milliy dasturi ishlab chiqildi. Investitsiya loyihalarida “yashil” komponentlar ko‘paytirilyapti. 2030-yilgacha zararli chiqindilarni 35 foiz qisqartirish va bu majburiyatni doimiy oshirib borish reja qilingan.

“Yashil makon” dasturi doirasida shaharlar hududlarining kamida 30 foizini ko‘kalamzor maydonlarga aylantirish ko‘zda tutilgan. Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni 100 foiz tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar qilinaypti. Tez sur‘atlarda o‘shirib borayotgan iqtisodiyotimizning energetikaga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish uchun “yashil” quvvatlar jadal rivojlantirilyapti.

Xususan, o‘tgan 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi va 9,6 gigavatt zamonaviy energiya quvvatlari yaratildi. Jumladan, 3,5 gigavattli 14 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi va 300 megavattli 2 ta saqlash tizimi ishga tushirildi. 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish reja qilingan.

Albatta, bugun dunyoda geosiyosiy tangliklar ro‘y berayotgan, savdo urushi oqibatida iqtisodiyot inqirozi kuchayib borayotgan murakkab sharoitida bunday katta-katta loyihalarni amalga oshirish oson bo‘layotgani yo‘q. Ammo global iqlim o‘zgarishi tufayli insoniyatning ertangi taqdiriga tug‘ilayotgan tahdidlarni bartaraf etish mas‘uliyati va majburiyati dunyo hamjamiyatining ajralmas qismi bo‘lgan mamlakatimiz rahbariyati va xalqimizni jiddiy tashvishga solayotgani bejiz emas. Zero, ekologiya barqarorligi kelajak masalasidir. Insoniyatning ertangi taqdiri aynan shu yo‘nalishdagi muammolar qanchalik samarali hal etilishi, tabiat va inson o‘rtasidagi mutanosiblik ta‘minlanishiga bog‘liq.

Prezidentimiz shu yil aprel oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan xalqaro iqlim forumida bu boradagi dolzarb vazifalar xususida yana bir karra to‘xtalib, bugungi kundagi vazifamiz kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘rishdan iborat ekanini alohida ta‘kidladi. Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy ezuq maqsadlarni yo‘lida birlashgan barcha davlatlarning sa‘y-harakatlarini uyg‘unlashtirish zarurligi qayd etildi.

Darhaqiqat, dunyoda barqaror rivojlanishga erishish uchun o‘zaro hamkorlikning o‘mi cheksiz. Shu bois, O‘zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilayotgan xalqaro hujjat va loyihalarining bu boradagi ahamiyati beqiyos.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM  
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



### Yurtimizda o‘rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga yetkaziladi

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida bu borada muhim chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, o‘rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million geektarga yetkazilishi va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar 14,5 foizgacha kengaytirilishi ko‘zda tutilgan.

Bu masalaga davlat dasturi darajasida alohida e‘tibor qaratilishi bejiz emas. Zero, yer yuzining o‘pkasi hisoblanadigan o‘rmonlar hayot davomiyligini ta‘minlash, inson va boshqa tirik mavjudotlar uchun zarur bo‘ladigan toza havo, oziqa va zarur iste‘mol mahsulotlari yetishtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yashil boylikni asrash va ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘rmon xo‘jaligi agentligi ma‘lumotiga ko‘ra, yurtimizda yangi o‘rmonlar barpo etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, mavjudlarini muhofaza qilish, qo‘riqlash va parvarishlash natijasida o‘rmon maydoni 3650 gektar kengaydi va

— Ekologik muvozanatni saqlash va hayot davomiyligini ta‘minlashda o‘rmonlar muhim o‘rin tutadi, — deydi O‘rmon xo‘jaligi agentligi O‘rmonlar barpo etish boshqarmasi bosh mutaxassisi, biologiya fanlari nomzodi Hojimurod Tolipov. — O‘rmonlar oziq-ovqat yetishtirishga ega mahsulotlarga boy. O‘rmonlarda o‘shirish, yemirish jarayonlarining oldini oladi. Bir vaqtning o‘zida bug‘langan suvni



atmosfera ga chiqaradi, bu esa jazirama issiqda salqinlikni ta‘minlaydi.

Ana shunday bebaho tabiat boyligini asrash ustuvor vazifadir. So‘nggi yillarda yurtimizda bu borada muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. “Yashil makon” loyihasi bunga

uchun 1300 gektar maydonda niholxona-ko‘chatxonalarda tashkil etilib, 127 million dona nihol-ko‘chat yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. 2024-yilda “Yashil makon” umummilliy dasturi doirasida barcha turdagi yuridik va jismoniy shaxslarga, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga jami 32 million tup, shu jumladan, sog‘liqni saqlash sohasi muassasalariga 1 million 183 ming, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga 1 million tup ko‘chat yetkazib berildi. Tuproq-iqlim sharoitiga mos manzarali o‘rmonzorlar barpo etildi.

O‘rmonlar bunyod etish, ularni saqlash va qo‘shimcha daromad olishni yo‘lga qo‘yish maqsadida sohaga xorijiy investitsiyalar jalb qilinoqda. Xususan, Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “O‘zbekistonda barqaror o‘rmon landshaftlarini tiklash” loyihasini amalga oshirish boshlandi. Mazkur loyiha doirasida jami 205,4 million dollar o‘zlashtiriladi. Bundan tashqari, 11 ta xorijiy grant hisobidan 3 million 900 ming dollar jalb etiladi. Natijada sohada eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati kengaymoqda. Buni 2024-yilda 71 ming dollarlik dorivor o‘simlik mahsulotlari eksport qilingani ham tasdiqlaydi.

Joriy yilda davlat dasturida bu yo‘nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish, o‘rmonlarni ko‘paytirish borasida muhim chora-tadbirlar belgilandi. Eng avvalo, “Yashil makon” va “Mening bog‘im” loyihalarini hayotga tatbiq etishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Jumladan, “Yashil makon” loyihasi doirasida bahorda 125 million tup, kuzda 75 million tup manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chati hamda qalamchalar ekilishi maqsad qilingan. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, joriy yil bahorgi ko‘chat ekish mavsumida jami 136 million tup daraxt va buta ko‘chati ekilgan.

“

**Yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi ekologik barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy o‘shirishning resurslar tejamliligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tishdir. Shu maqsadda 2025-yil yurtimizda Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e‘lon qilindi. Davlat dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.**

misol. Oxirgi yillarda ushbu loyiha doirasida bahor va kuzda ko‘chat ekish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilmoqda. Loyihani umummilliy harakatga aylantirish barobarida ekilgan har bir ko‘chatni asrash choralarini ko‘rilmoqda. Bu borada o‘rmonchilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda keng qamrovli ishlar olib borilayotir.

Aholi va tashkilotlarga har bir mintaq iqlim sharoitiga mos ko‘chat yetkazib berish barobarida o‘rmon maydonlarini kengaytirish, yashil qoplamalarni ko‘paytirish choralarini ko‘rilmoqda. O‘tgan yil shu maqsadda o‘rmonchilik hamda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini yanada kengaytirish uchun daraxt va butalarning 1050 tonna urug‘i jamg‘arildi.

Barcha o‘rmon xo‘jaliklarida tuproq-iqlim sharoitlariga mos ko‘chat yetishtirish

Shuningdek, joriy yilning birinchi choragida 20 ta “yashil bog‘” barpo etilishi belgilangan. Bugungi kunga qadar 27 ta, shundan Xorazm viloyatida 11 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta, Surxondaryo viloyatida 4 ta, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida 2 tadan, Buxoro, Jizzax va Samarqand viloyatlarida 1 tadan “yashil bog‘” barpo etilgan.

Bu ishlarning sifatli amalga oshirilishi uchun har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chat yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida bu yil bahor mavsumidan o‘rmon xo‘jaliklaridan sog‘lom onalik plantatsiyasini tanlash orqali yilliga 1,5 ming tonna urug‘ tayyorlanadi. Janubiy Koreya tajribasi bo‘yicha suvsizlikka chidamli, iqlim sharoitiga mos yopiq ildizli konteyner va in-vitro usulida 2 million ko‘chat

olish yo‘lga qo‘yiladi.

Davlat dasturida belgilangan yana bir vazifa — o‘rmonlar maydonini kengaytirish borasida ham ishlar izchil. Jumladan, cho‘l, tog‘li va tog‘oldi hududlarda cho‘lanlash, qum ko‘chishi, suv va shamol ta‘sirida tuproq yemirilishining oldini olish, ekologik muhitni yaxshilash maqsadida ihotada daraxtzorlar barpo etiladi. Daraxt va butalar urug‘i, dorivor va oziq-ovqat o‘simliklar xomashyosi tayyorlanadi. O‘rmon xo‘jaliklarida 123 million tup nihol va ko‘chat yetishtiriladi. O‘rmon xo‘jaliklari tizimida foydalanilmay turgan 7 ming gektar yer o‘zlashtiriladi.

Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Namangan viloyatlaridagi bir qator tumanlarda tog‘ va adir qiyaqlarida 480 gektar yerda terassa usulida tuproq-iqlim sharoitiga mos ko‘chatlar ekiladi. 18 ta davlat o‘rmon xo‘jaligi ko‘chat yetishtirishga ixtisoslashtiriladi. Shuningdek, bu yo‘nalishda “ilm — loyiha — amaliyot” janrida genetik seleksiya ishlari kuchaytiriladi.

### Yuksal ekologik madaniyat tabiatni e‘zozlashga xizmat qiladi

Bugungi kunda yurtimizda ekologik loyihalar ko‘lami tobora kengaymoqda. Barcha jabhalarda tabiiy resurslarni tejashga xizmat qiladigan usul va vositalar joriy etilyapti. Milliy qadriyatlarimizga mos ravishda daraxt ekish, bog‘ yaratish hayotimizga chuqur singib bormoqda.

Ammo ana shunday yaxshi ishlarimizga soya solayotgan muammolar ham yo‘q emas. Masalan, daraxt kesish ishlari huquqiy jihatdan tartibga solingan bo‘lishiga qaramay, hamon yashil boyligimiz noqonuniy kesib ketilyapti. Taqiqlangan hayvonlarni ovlash, jonivorlarga oзор yetkazish, chiqindini belgilanmagan joyga tashlab ketish, suvni ifloslantirish kabi holatlar haqida matbuot va ijtimoiy tarmoqlar bot-bot bong uradi.

Albatta, bunday muammolarning oldini olish maqsadida tegishli tuzilmalar qonuniy choralarni ko‘radi. Ammo tabiatga munosabatimizda mehr va muhabbat tuyg‘usi dilimizda jo‘sh umas ekan, uni asrab-avaylashda kutilgan natijaga erishish qiyin. Shu bois, yurtimizdagi ekologik loyihalar jarayonida aholi, ayniqsa, yoshlarning ekologik bilim va dunyoqarashini oshirish, tabiatni asrashni har bir insonning kundalik ishiga aylantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning shu yil 15-mayda qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” q qarori bu borada muhim dasturlamal bo‘lishi shubhasiz. Qarorga muvofiq, 2030-yilda bu yo‘nalishda qator ko‘rsatkichlarga erishish belgilandi. Jumladan, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisida ekologik madaniyatni shakllantirish, umumiy o‘rta ta‘lim tizimi tashkilotlarining 4,2 million o‘quvchisida ekologik ta‘lim-tarbiyaning mustahkamlanishi, ekologik madaniyatning yuksalishiga erishish ko‘zda tutilgan.

Qaror bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya 2027-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasi tomonidan har 2 yil muddatga tasdiqlanadigan alohida “yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining ekologik bilimini oshirishga qaratilgan bepul o‘quv kurslari tashkil etiladi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilandi.

Shu bilan birga, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Yangi daraxt — yangi nafas” respublika ekochampionati, har oyda 1 marotaba “Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlari o‘tkaziladi. Bundan tashqari, oliy ta‘lim muassasalarida talabalari tomonidan O‘zbekiston ekovolontyor talabalari harakati tashkil etiladi.

Tabiiyki, bu chora-tadbirlar va ezuq maqsadga yo‘naltirilgan loyihalar tabiatni e‘zozlash, uning har bir ne‘matidan tejab-tergab foydalanishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Zero, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, tabiatni asrash bu — insonni, kelajakni asrash demakdir.





Bugunning gapi




# TOSHKENT MOZAIKALARI

## SHAHARGA MONUMENTAL SAN’AT

### NAMUNALARI QAYTARILMOQDA



“Bugun Toshkent shahrida ana shunday o‘ziga xos ruhni aks ettirib turgan 480 dan ortiq mozaik panno mavjud. Shundan 400 tasi turar joy binolari fasadida. Toshkent mozaikalarini saqlab qolish loyihasi doirasida ularni o‘rganish, katalogini yaratish davom etyapti. Muhim jihati, Toshkentning dunyodagi “Eng ko‘p mozaikalarga ega shahar” sifatida tan olinishi uchun Ginesning rekordlar kitobi komissiyasiga ariza berish rejalashtirilgan.



Inson biror xayrli tashabbus haqida eshitganida allanechuk quvonadi. Agar bu tashabbus turmush tarzingiz bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, yanada yoqimli. Shunday tashabbuslardan biri — poytaxtimizdagi o‘z qiyofasini yo‘qotgan mozaikalarni qayta tiklash loyihasi haqida eshitganimda, avvaliga bir oz anglolmadim. Keyinroq bolaligimda ammamning uyiga mehmonga borganim, ular yashaydigan ko‘p qavatli bino devori mozaikalar bilan bezatilgani xayolimdian o‘ta boshladi. Qizig‘i, o‘sha vaqtlari shaharda bunday tasvirlarga ko‘p bor ko‘zim tushardi. Oxirgi yillarda Toshkent shahrida yuzlab yangi, zamonaviy turar joy qurilib, atrofda eskilari deyarli ko‘zga tashlanmay qolgani uchunmi, mozaikali tasvirlar haqida unutilib yuborgan ekanman.

Ammo bu ularning yo‘qolib ketganini anglatmaydi. Masalan, metro bekatlaridagi mozaikalarga deyarli har kuni ko‘zimiz tushadi. Ancha yillar oldin qurilgan ko‘p qavatli uylar fasadlaridagi mozaik tasvirlar ham haligacha saqlanib turibdi. Ularning aksari oddiy tasvirlar sifatida odamlar yodidan chiqqaniga qaramay, ushbu san‘at asarlariga me‘moriy go‘zallik sifatida qarovchilar bor. Yillar davomida o‘nlab mozaikalar yuzasi reklama bannerlari bilan berkitib qo‘yilgani, ayrimlarining ustiga bo‘yoq tortilgani aholi, xususan, keng jamoatchilik faollari e‘tiboridan chetda qolmagani buning isboti. Ular o‘z noroziliklari bilan mozaikalarni qayta tiklashni so‘radi.

Shu tariqa keyingi ikki yildan buyon Toshkent mozaikalarini saqlab qolish loyihasi amalga oshirilmoqda. 2023-yildayoq tashabbuskorlar harakati bilan uylarning 200 dan ortiq mozaikali fasadidan reklama bannerlari olib tashlanib, 157 ta mozaika madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan.

Xayrli tashabbus haqida chuqurroq bilganim sari loyiha shaharning o‘ziga xos me‘moriy merosini asrashga qaratilgani bilan meni yanada qiziqitirib qo‘ydi. Yaqindagina amalga oshirilgan yana bir harakat buning misoli. Gap shundaki, loyiha doirasida Toshkent shahriining Shayxontohur va Uchtepa tumanlaridagi turar joylar fasadlaridagi uchta noyob mozaika yuzasi bo‘yoqdan tozalanib, yana jamoatchilik e‘tiboriga havola etildi. Mazkur mozaik tasvirlar 1970-yil o‘rtalarida rassom Nikolay Jarskiy tomonidan yaratilgan bo‘lib, 2021-yilda fasadni ta‘mirlash sabab qiyofasini yo‘qotgan. Ularning yuzasiga surtilgan bo‘yoq mutaxassislar nazorati ostida va qat‘iy tavsiyalarga rioya etgan holda ehtiyotkorlik bilan tozalandi.

Bo‘yoq ostida qolgan mozaikalarni tiklash shaharning vizual tarixi, o‘tgan davr, insonlar va g‘oyalari bilan bog‘liq xotiralarni qaytarishdir, — deydi “Tashkent Mosaics” loyihasi ilmiy rahbari Fotima Abdurahmonova. — Bular shunchaki tasvirlar emas, balki yillar davomida Toshkentning bebaho merosi va faxriga aylangan, poytaxt vizual qiyofasining bir qismi hisoblanadi. Afsuski, so‘nngi yillarda ularning ayrimlari bo‘yoq ostida qolgan. Bu, albatta, atay qilinmagan, shunchaki arxitektura merosini tizimli saqlash mexanizmi yo‘qligi

bois, fasadlarni keng qamrovli ta‘mirlash va bo‘yash jarayonlarida mozaikalarga san‘at asari emas, balki bo‘yoq bilan berkitish mumkin bo‘lgan eski tasvirlar sifatida qaralgan. Bu borada ishini bajaruvchi tashkilotlarga aniq ko‘rsatmalar berilmagan. Shu bois, loyiha doirasida bo‘yoq ostida qolgan, rassom Nikolay Jarskiy ijodiga mansub 3 ta noyob mozaika tozalandi. Bu bir martalik tashabbus emas, Toshkent mozaikalarini o‘z holicha asrashga qaratilgan harakatlar turli ko‘rinishlarda doimiy davom ettiriladi.

#### Yarim asrdan ko‘proq vaqt...

Toshkent shahri O‘zbekiston poytaxtiga aylanganidan buyon salkam bir asr o‘tdi. Bu ko‘hna va azim shahar qadimdan o‘ziga xos qiyofasi bilan ajralib turgan. Ushbu manzilga bir kelgan inson unga mehr qo‘yadi-yu, sababini izohlay olmaydi. Shaharning nimasidir, qandaydir ohanrabosi o‘ziga chorlayveradi. Toshkentga berilgan “tinchlik shahri”, “non shahri”, “do‘stlik shahri” kabi e‘tiroflar esa poytaxtning azaldan mehmonlar uchun ochiq bo‘lgani timsolidir.

Bugun Toshkent shahri jadal rivojlanayotgan poytaxtlar qatorida. U nafaqat mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik shahar hamdir. Keyingi yillarda poytaxt qiyofasi tubdan yangilanib boryapti, baland bino va turar joy majmualari, ko‘ngilochar manzillar, savdo va xizmat ko‘rsatish maskanlari, dam olish maydonlari soni bir necha barobar oshgan. Shu bilan birga, shaharning o‘ziga xos madaniy va me‘moriy yodgorliklarini saqlashga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Toshkent mozaikalari shular jumlasidan.

Bu mozaikalar o‘zi qachon paydo bo‘lgani ko‘pchilik qatori menga ham qiziq. Ko‘rinishidan tarixi ancha yillarga borib taqalishi turgan gap. Ularning yaratilishi ham o‘sha vaqtdagi biror madaniy hodisa bilan bog‘liq bo‘lsa kerak deb o‘yladim. Taxminim haqiqatga yaqin bo‘lib chiqdi. Chindan ham Toshkentdagi mozaikalar katta bir voqelik sabab yaratilgan ekan. Ya‘ni ular 1966-yilgi Toshkent

zilzilasidan keyin boshlangan keng qamrovli qayta qurish jarayonlarida paydo bo‘lgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, tarixga muhrlangan bu kuchli zilzila oqibatida 300 mingdan ortiq odam uysiz qoladi, 2236 ta ma‘muriy bino, 700 ga yaqin savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchasi, shuningdek, mingga yaqin boshqa binolar zarar ko‘radi. Talafotning ko‘lami oz emas, kichik ta‘mirlashlar bilan ish bitmasdi. Shu bois, shaharda qayta qurish boshlanadi. Bir vaqtning o‘zida yuzlab binolar qurilishi kerakligi sababli ularni umumiy g‘oya ostida yaratish osonroq bo‘lgan. Me‘morlar binolarning o‘ziga xosligiga alohida e‘tibor qaratadi. Mozaikalar o‘rnatish g‘oyasi ham shuning bir qismi edi.


Mozaika fransuzchada bir xil turdagi yoki tosh, yog‘och, marmar, metall kabi turli xomashyo bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqsh ma‘nosini anglatadi. U monumental bezak san‘atining asosiy turlaridan biri bo‘lib, odatda binolar fasadiga terib chiqiladi. Toshkentdagi ilk mozaik panno Muqimiy ko‘chasidagi 9 qavatli uylarning birida yaratilgan ekan. Mozaikalarni o‘rnatish texnik jihatdan qiyinchilik tug‘dirmagan. Panellar dastlab pastda tayyorlanib, keyin devorlarga o‘rnatilgan.

Mozaikalar zilziladan keyingi shahar hayotiga o‘ziga xos ijobiy ruh olib kirgan. Ularning yaratilishi, bir tomondan, shaharga zamonaviy qiyofa berish, boshqa tomondan esa mehnat, xalqlar do‘stligi, tinchlik va ilm-fan rivoji kabi g‘oyalarni tang‘ib qilishga qaratilgan. Tasvirlarda milliy naqshlar va motivlarga murojaat qilish holatlari ustunlik qiladi va bu Toshkentning ko‘p millatli hamda boy tarixiy-

madaniy qiyofasini aks ettirgan. Asosan, sevgi va jasorat haqidagi folklor asarlar qahramonlari, milliy liboslar, urf-odatlar, taomlar va cholg‘u asboblari, mahalliy aholi tasvirlangan.

#### Toshkent — “mozaikalar shahri”

Demak, Toshkentdagi mozaik pannolarning yaratilganiga yarim asrdan ko‘proq vaqt bo‘ldi.



Bu davr ichida ta‘mirlalab holga kelganlari, buzib tashlanganlari ham bor. Shunga qaramay, ushbu san‘at asarlarining o‘tgan yillar davomida asl holini yo‘qotmasdan saqlanib qolgan, mustahkamligi siri kishini hayratga soladi.

Buning ortida mozaikalarni yaratishdagi yuqori mahorat va sifatli materiallardan foydalanilgani yotadi, — deydi Fotima Abdurahmonova. — Mozaik pannolar ko‘lda terilgan bo‘lib, yuqori haroratda pishirilgan mustahkam keramik plitkalar ishlatilgan.

# XUSUSIYLASHTIRISH NIMA BERADI?

Mamlakatimizda qulay investitsiyaviy muhit yaratish, xususiy mulk egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, davlat ulushi saqlanib qolayotgan ayrim tarmoq va yirik korxonalarda bozor mexanizmlariga o‘tish kechikayotgani ham bor gap.



## Farmon va ijro

Bu esa yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mehnat umumdorligini oshirish, xususiy kapitalni faol jalb qilib, yangi ish o‘rinlari yaratishga to‘sqinlik qiladi.

Joriy yil 21-aprelda Prezidentimizning “2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli 115 ta jamiyat ustav kapitalidagi ulushlar, 659 ta ko‘chmas mulk obyekti va 6,1 ming gektar yer uchastkalari savdoga chiqariladi. 2030-yil 1-yanvargacha davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishga moratoriy joriy qilinadi.

Respublikamiz bo‘yicha 2025-yilda xususiylashtirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib 30 trillion so‘mlik davlat aktivlari va yer uchastkalarni sotish va kamida 10 trillion so‘m tushumni ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Dastlabki bosqichda kamida 30 ta foydali qazilma koni va uchastkasidan foydalanish huquqi savdoga chiqariladigan bo‘ldi.

Surxondaryo viloyatida ham 2025-yilda mulk

huquqi asosida umumiy 480 gektar 4 sotix yer maydoni va yer uchastkalarini elektron onlayn auktsion savdolariga chiqarish maqsad qilingan.

Birinchi chorakda 73,3 gektar, ikkinchi chorakda 122,2 gektar va uchinchi chorakda 150,6 gektar, to‘rtinchi chorakda 134,3 gektar yerni auktsionga qo‘yish ko‘zlanayapti.

— Surxondaryo viloyatida hozirgi kunda 51 ta obyektlar ommaviy savdoga qo‘yilgan. Ayni paytda baholash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, viloyatda davlat korxona va tashkilotlarining 1-qavat binolari xatlovdan o‘tkazilganida 17 ta tashkilotning 103 ta xonasi bo‘sh ekanini aniqlandi. Ulardan samarali foydalanish yuzasidan zarur takliflar berildi, — deydi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi Alisher Avazov. — Shu bilan birga, viloyatdagi 37 ta bozor xatlovdan o‘tkazildi. Natijada mavjud 3 ta bozorni xususiylashtirish borasida takliflar berildi.

Xususiylashtirish sohasidagi kafolatlar va qonunchilik hujjatlari takomillashtirilayotgani tadbirkor uchun, ayniqsa, foydali. Chunki davlat ulushiga ega korxona raqobatni o‘ylamaydi,



ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish sust kechadi.

Agar shu korxona xususiy sektorga berilsa, tadbirkor iloji boricha ko‘proq foyda olish uchun harakat qiladi. Natijada korxonalar o‘rtasida sog‘lom raqobat yuzaga keladi. Tadbirkor ishlab chiqarish quvvatini yanada

“

Surxondaryo viloyati yer osti qazilmalariga boy. Bu ma‘danlarga tashqi bozorda hamisha talab katta. Prezidentimiz farmoni asosida Surxondaryoda ham 2025-yilda foydali qazilmalarni qazib olish uchun foydalanish huquqi elektron onlayn auktsion savdolariga chiqariladi.

oshirish va mahsulot turini kengaytirishni o‘ylaydi. Qarabsizki, yarim imkoniyati darajasida ishlayotgan korxona to‘liq quvvatda ishlaydi, ishchi o‘rni ko‘payadi va davlatga bundan ancha foyda tushadi.

— 2025-yilda 6100 gektar yer savdoga chiqarilishi belgilangan. Manzilli ro‘yxat shakllantirilgan. Xususiylashtirishni yanada

osonlashtirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 6 oygacha taklif bo‘lmagan jarayonda imoratlar narxini 50 foiz kamaytirish belgilangan. Yagona taklif egasi bo‘lgan vaziyatda ijara shartnomasi tuzish ishlari olib borilmoqda. Bularning barchasi fuqarolarning qonuniy va huquqiy manfaatlarini ta‘minlash, shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi, — deydi

Bu materiallar namlik, quyosh nuri, harorat o‘zgarishi va mexanik zarbalarga ancha chidamli. Plitkalarni yopishtirishda ham mustahkam moddalardan foydalanilgan. Bularning bari o‘sha davrda qat‘iy amal qilingan qurilish normalari, sifat talablari asosida bajarilgan. Asosiysi, mozaikaning o‘zi ham mustahkam, uzoq yillar chidaydigan monument san‘at turi hisoblanadi. Bo‘yoq bilan qiyoslaganda, mozaika devorga qattiq yopishadi, rangsizlanmaydi, yorilmaydi va o‘nlab yillar davomida ajralib tushmaydi. Hatto muntazam parvarishsiz ham uzoq vaqtgacha saqlanadi. Binoni to‘liq ta‘mirlash uning sifatiga ziyon yetkaza olmaydi.

Mozaikalar estetik va madaniy jihatdan alohida ahamiyatga, qadriyatga ega. Ular shahar tarixining vizual yozuvi, zamon ruhi va san‘at tilini aks ettiradi. Toshkent mozaikalari allaqachon shaharning o‘ziga xosligiga aylangan. Shu bois, uning o‘rmini yangi va zamonaviy rasmlar, rangtasvir namunalari bilan almashtirish haqida o‘ylanmayapti. Aksincha, mahalliy aholining o‘zi mozaikalarni saqlab qolish tarafdori va boshqalarini ham ushbu tashabbusga chaqirmoqda.

Bu tasvirlar amaliy jihatdan foydali xususiyatlarga ega ekanini ko‘pchilik bilmasa kerak. Mutaxassislarining aytishicha, mozaik plitkalar yaltiroq yuzasi tufayli quyosh nurlarini qaytarib, issiq havoda devorlarning qizib ketishini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, plitkalar beton kabi namlikni o‘ziga shimib olmagan bo‘ls, binoni chirish, mog‘or paydo bo‘lishdan himoyalaydi. Shu jihatlariga ko‘ra, mozaikalar nafaqat shahar uchun alohida bezak, balki ekologik jihatdan oqilona yechim hisoblanadi.

Ularni asrashda originalligini saqlab qolish, asl holiga zarur yetkazmaslik yanada muhimroq. Shu bois, pannolarni bo‘yoqlardan tozalash jarayoni restavratsiya mutaxassislari nazorati ostida, zarur hollarda san‘atshunoslari va arxitektorlari ishtirokida bajariladi. Tozalash ishlari uchun usullar o‘zlashtiriladi.

— Bu usullar avval boshqa joyda sinovdan o‘tkazilib, xavfsiz ekanini aniqlangachgina mozaikalarni tozalashda foydalaniladi, — deya tushuntirdi Fotima Abdurahmonova. — Ba‘zan mozaikalar shunchalik shikastlanadiki, uni oddiy tozalash bilan tiklab bo‘lmaydi. Masalan, plitkalarining bir qismi yo‘qolgan, yopishtiruvchi asos kuchli zarartlangan, agressiv bo‘yoq qoplamasi yoki namlik, quyosh va vaqt ta‘sirini kuzatilgan bo‘lishi mumkin. Shunday hollarda bir qancha usullardan foydalaniladi. Agar elementlarning ayrimlari yo‘qolgan bo‘lsa, ularning o‘rni rang, shakl va teksturasini imkon qadar originaliga yaqin plitkalar bilan tiklash mumkin. Bordini yo mozaikaning katta qismi zararlangan bo‘lsa, yanada ko‘proq shikast yetmasligi uchun saqlash choralari ko‘riladi. O‘ta og‘ir holatlarda esa arxiv fotosuratlari mavjud bo‘lsa, nusxa ko‘chiriladi va hokazo.

Asosiysi, bu ishlarning bari mutaxassislar ishtirokida bajariladi. Chunki nafaqat tasvirni, balki u yaratilgan davr ruhini ham saqlash kerak. Bugun Toshkent shahrida ana shunday o‘ziga xos ruhni aks ettirib turgan 480 dan ortiq mozaika panno mavjud. Shundan 400 tasi turar joy binolari fasadida. Toshkent mozaikalarini saqlab qolish loyihasi doirasida ularni o‘rganish, katalogini yaratish davom etyapti. Muhim jihati, Toshkentning dunyodagi “Eng ko‘p mozaikalarga ega shahar” sifatida tan olinishi uchun Ginesning rekordlar kitobi komissiyasiga ariza berish rejalashtirilgan.

Ochig‘i, bu ko‘pchilik uchun yangilik. Boisi, poytaxtda yuzlab mozaikalar borligiga unchalik ham e‘tibor bermaganimiz rost. Ularni saqlashga va yangidan taqdim etishga qaratilgan harakatlar esa odamlarni shaharning vizual qiyofasidagi rang-baranglikdan zavqlanishga chorlaydi. Yaqin yillarda esa Toshkentga beriladigan ta‘riflar qatoriga “Mozaikalar shahri” ham qo‘shilsa, ajab emas.

Iroda TOSHMATOVA,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Elektron onlayn auktsionlarni tashkil etish” AJ Surxondaryo viloyati vakili Lutfulla G‘oyibov. — Davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarida elektron onlayn auktsion savdo ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratiladi. Jumladan, maydoni 10 ming kvadrat metr gacha bo‘lgan davlat mulki obyektlari yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaradigan tadbirkorlarga 5 yil muddatga tekin foydalanishga beriladi. Shartnoma shartlari bajarilgan taqdirda esa ushbu tadbirkorlarga baholangan qiymatda to‘g‘ridan to‘g‘ri sotilishi mumkin.

Surxondaryo viloyati yer osti qazilmalariga boy. Bu ma‘danlarga tashqi bozorda hamisha talab katta. Prezidentimiz farmoni asosida Surxondaryoda ham 2025-yilda foydali qazilmalarni qazib olish uchun foydalanish huquqi elektron onlayn auktsion savdolariga chiqariladi.

Sariosiyo tumanidagi Bayram-1, Yong‘oqli va Qorakon hududlarida oltin, kumush, qo‘rg‘oshin va rux kabi tabiiy xazinalar mo‘l-ko‘l. Bu konlarning xususiylashtirilishi viloyatning kon resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Muhimi, hududlar iqtisodiy jihatdan yanada o‘sadi va ishsiz 2 ming fuqaroning bandligi ta‘minlanishi maqsad qilinayapti. Buning natijasida yiliga 600 million dollarlik tayyor mahsulotlarni xorijga eksport qilish istiqbollari ochiladi.

Mazkur konlar negizida faqat xomashyo emas, balki tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha rejalari mavjud. Bu konlarga 320 million dollarga teng mahalliy va xorijiy investitsiya jalb qilish mo‘ljallanyapti.

Sarvar TO‘RAYEV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



## Yuksalish pallasi

“Inson dunyoni qanchalik bilsa, o‘zligini ham shunchalik anglaydi”. Nemis faylasufi Gyotening ushbu hikmatli so‘zini ta’lim-tarbiya va o‘zlikning tajassumi deyish mumkin. Darhaqiqat, o‘zligini tanimoqchi bo‘lgan har qanday jamiyat borki, shubhasiz, uning ilk murojaati zakovat olamiga qaratilgan bo‘ladi. O‘zlik faqatgina o‘zimizning kim ekanimizni anglash emas, balki ertangi kunga ishonchimizning qay darajada mustahkamligi hamdir. Quvonarlisi, biz bugun o‘zligining himoyachisi bo‘lgan hamda yorqin kelajak poydevorini ilm-ma’rifat va qat’iyat bilan bunyod etayotgan jamiyatlar safidamiz. Erishilayotgan natijalar zahirida esa, shubhasiz, davlatimiz tomonidan ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor turibdi. Zotan, yuqorida aytganimiz yuksak maqsadlarni mukammal ta’lim-tarbiya tizimimiz uddalash imkoni yo‘q.

Joriy yil 15-may kuni Prezidentimiz raisligida maktab ta’limi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ko‘tarilgan masalalar amalga oshirilayotgan ishlarning tahliliy sarhisobi, shuningdek, kelgusidagi harakatlar uchun o‘ziga xos dasturlamal vazifasini o‘tadi.

Davlatimiz rahbari yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sog‘lom, bilimli va vatanparvar avlodni voyaga yetkazish eng asosiy vazifalardan biri ekaniga alohida urg‘u berdi. Bu bejiz emas, albatta. Har qanday yurtning ertangi kuni uning yoshlari qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liqligi kundek ravshan. So‘nggi yetti yil ichida maktabgacha va maktab ta’limiga yo‘naltirilayotgan mablag‘ning miqdori yetti barobar oshgani, bu yil esa 60 trillion so‘mga yetayotgani shunchaki raqamlar emas, balki sohaga qaratilayotgan ulkan e’tiborning amaldagi ifodasidir. Maktablarda millionga yaqin, bog‘chalarda esa bir yarim million yangi o‘rin yaratilishi, bog‘cha yoshidagi bolalar qamrovi uch karra kengayib, 78 foizga yetgani ham buni yaqqol tasdiqlaydi.

Biroq erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda tizimda o‘z yechimini kutayotgan masalalar borligi ham sir emas. Ta’lim dasturlarini dunyoning eng ilg‘or tajribalari asosida yangilash, zamonaviy darsliklar yaratish, maktablarni kerakli jihozlar bilan ta’minlash borasida katta ishlar qilinmoqda. Lekin o‘qituvchilar yangicha ishlash uslublarini qay darajada o‘zlashtirayotgani, bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani kabi savollar kun tartibida turibdi.

### O‘qituvchi — islohotlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi

Muallimlarning malakasi, til bilishi, o‘quvchilarni baholashning yangicha tizimi kabi jihatlarni inobatga olib, ularga o‘ndan ortiq turdagi ustama joriy qilingani yaxshi yangilik. Natijada 60 ming o‘qituvchi bugungi kunda 8 million so‘mdan 12 million so‘mgacha oylik maosh olmoqda. Bog‘cha tarbiyachilari maoshlari ham 65 foiz oshirilib, maktab o‘qituvchilarini bilan tenglashtirilgani, yangi o‘quv yilidan boshlab esa maktab rahbarlari va bog‘cha mudiralarning oyliklari 7-10 million so‘mdan ortishi ham ularning mehnatini munosib qadrlash yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Shu bilan birga, ikki yil avval o‘qituvchilarga toifa berishning shaffof va raqamlashtirilgan tizimiga o‘tilishi sohadagi haqiqiy ahvolni ko‘rsatib berdi. O‘tgan yili 341 ming o‘qituvchi yangi tizim bo‘yicha imtihon topshirgan bo‘lsa, ularning 102 ming nafari, afsuski, bu sinovdan o‘ta olmagan. Ushbu holat, albatta, chuqur tahlilni va tegishli xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Ehtimol, bu uzoq yillar davomida shakllangan ayrim yondashuvlarning bugungi kun talablariga javob bermayotganidan dalolatdir. Ishga qabul qilishda endilikda diplomga emas, balki nomzodning bilim va malakasiga e’tibor qaratilayotgani hamda bu yangi tizim orqali sinovdan o‘tgan 13 ming nomzodning 6 mingining bilimi yetarli deb topilmagani ham pedagog

kadrlar tayyorlash tizimini jiddiy qayta ko‘rib chiqish zarurligidan darak beradi.

Ayniqsa, 61 ta xususiy oliy ta’lim muassasasida pedagoglar tayyorlanayotgan bo‘lsa-da, ularning birortasida kimyo, biologiya, fizika kabi aniq fanlar bo‘yicha o‘qituvchilar yetishtirilmayotgani o‘ylantiradigan masala. Axir bu fanlarsiz zamonaviy texnologiyalar rivojini tasavvur qilib bo‘ladimi?

Demak, o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirib borish, eng so‘nggi ta’lim metodikalari, raqamli vositalar bilan ishlashga o‘rgatish, ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yangicha tizimni yo‘lga qo‘yish dolzarb. Bunda har bir o‘qituvchining ehtiyojlarini hisobga oladigan, ko‘proq amaliyotga tayanadigan va natijaga yo‘naltirilgan dasturlar kerak.

### Zamonaviy dunyoda navqiron avlod tarbiyasi — e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan masala

Yig‘ilishda ko‘tarilgan yana bir o‘ta jiddiy masala yuqori sinf o‘quvchilarining kuniga sakkiz soatgacha vaqtini mobil telefon va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganidir. Bu holat nafaqat o‘qituvchilar va maktab ma’muriyatini, balki har bir ota-onani ham jiddiy tashvishga solishi lozim. Telefon va internet, shubhasiz, bugungi kunda bilim olish, dunyoni bilish uchun katta imkoniyat. Ammo undan me’yordan ortiq va maqsadsiz foydalanish o‘quvchining darsga qiziqishini kamaytirishi, sog‘lig‘i va ruhiyatiga salbiy ta’sir o‘tkazishi, hayotiy jonli muloqotlardan uzoqlashtirishi mumkin.

Bu muammoni faqat taqiqlash bilan hal etib bo‘lmaydi. Eng avvalo, ota-onalarning o‘zi farzandlariga namuna bo‘lishi, ular bilan ko‘proq

maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish, bolalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun qiziqarli to‘garaklar faoliyatini yanada kuchaytirish kerak.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda Namanganda o‘quvchilarga avtomobilni ijaraga berish avj olgani oqibatida har oyda 10-15 yosh majruh bo‘lib qolayotgani, o‘lim bilan tugayotgan holatlar ham ko‘pligini qayd etdi.

Ichki ishlar idoralari boshliqlari, viloyat, tuman prokurorlari qonun ustuvorligini ta’minlashda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotganini ta’kidladi. Prezidentimiz tomonidan bolalarga mashina boshqarishni berganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish bo‘yicha qonun



subhatlashishi, kitob o‘qishga, sportga, san’atga qiziqirishi lozim. Maktablarda esa raqamli savodxonlik darslari orqali o‘quvchilarga internetdan to‘g‘ri foydalanishni, kerakli ma’lumotni topishni, turli salbiy ta’sirlardan saqlanishni o‘rgatish muhim. Shu bilan birga,

loyihagini tayyorlash topshirig‘i berildi. Darhaqiqat, o‘smirlarning xatti-harakatini nazorat qilib turish, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki butun jamiyatimiz, har bir oilaning vazifasi bo‘lishi ayni muddao.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



# MAKTAB TA’LIMIDA YANGI MARRALAR

“O‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirib borish, eng so‘nggi ta’lim metodikalari, raqamli vositalar bilan ishlashga o‘rgatish, ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan yangicha tizimni yo‘lga qo‘yish dolzarb. Bunda har bir o‘qituvchining ehtiyojlarini hisobga oladigan, ko‘proq amaliyotga tayanadigan va natijaga yo‘naltirilgan dasturlar kerak.

### “Favqulodda to‘qson kunlik”: harakatlarni jadallashtirish yechimi

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida “favqulodda to‘qson kunlik” ish tartibi e’lon qilinishi sohadagi muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish, islohotlarni jadallashtirish borasida davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yilgan qat’iy talabdir. Xo’sh, bu muddatda nimalarga erishish mumkin? Avvalo, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish, ish uslublarini samaradorlikka asoslangan tarzda tashkil etish, tizimdagi har bir xodimning mas’uliyatini kuchaytirish hamda aniq natijalarga erishish salohiyatini oshirishdir.

Bog‘chalar soni ortib, 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog‘cha ishlash turgani, ulardagi bolalar qamrovi 2,3 millionga yetgani quvonarli. Ammo Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Qamrov oshdi, lekin sifat bo‘yicha qiladigan ishlarimiz ko‘p. Bog‘chalar nafaqat tarbiya, balki bolada ta’lim olish uchun ilk ko‘nikmalarni shakllantiradigan maskana aylanishi kerak”. Juda o‘rinli fikr. Aynan bog‘chada bolaning dunyoqarashi, qiziqishlari va qobiliyatlarini shakllana boshlaydi. Shu sababli bu yildan boshlab ilg‘or xorijiy tajribalar, jumladan, Singapur metodikasi asosida

maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich sinflar uchun o‘quv dasturlarini bir-biriga moslashtirish, bolalarni matematika, tabiiy fanlar va texnologiyalarga tanqidiy va ijodiy yondashishga o‘rgatadigan dasturlar yaratilishi kelajak uchun muhim poydevor bo‘ladi. Davlat va xususiy bog‘cha tarbiyachilarining bilim va mahoratini, psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi ham sifat oshishiga xizmat qiladi.

### Yoshlarning vaqti behuda o‘tmasin — millat taraqqiyotiga xizmat qilsin

Yig‘ilishda yoshlarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish masalasiga ham katta e’tibor berildi. “Barkamol avlod” bolalar maktablari, “Yoshlik” sport jamiyati va Respublika o‘quvchi yoshlar markazini birlashtirib, yagona tizim yaratish, ularni to‘liq ta’mlab, eng zamonaviy va ijodiy yo‘nalishlarda jihozlash, xorijiy tillar, sun’iy intellekt, dasturlash va animatsiya kabi yangi to‘garaklar ochish — bularning barchasi yoshlarimizning intellektual o‘sishi, qiziqishlarini to‘yobga chiqarishi va kelajakda o‘z o‘rnini topishi uchun keng yo‘l ochadi.

O‘quvchilar o‘rtasida ichki turizmni rivojlantirish, Qoraqalpog‘iston, Xorazm,

Samarqand, Buxoro va Toshkent shahridagi “Barkamol avlod” markazlarida “Bolalar say-yohlik bazalari”ni tashkil etish va har yili bir million o‘quvchini O‘zbekiston bo‘ylab sayohatga olib chiqish topshirig‘i ham juda ahamiyatli. Yoshlar o‘z yurtining boy tarixi, go‘zal tabiati va madaniyati bilan yaqindan tanishadi, bu esa ularning qalbidagi vatanga muhabbat va milliy g‘urur tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi.

### Milliy ruhdagii kontent — ma’naviy himoya vositasi

Bolalarni internetdagi zararli ma’lumotlardan asrash borasida ko‘p ishlar qilinayotganiga qaramay, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularning targ‘iboti, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha professional tashkilot yo‘q” edi. Endilikda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tuzilishi bu boradagi bo‘shliqni to‘ldirishga yordam beradi. Mazkur markaz bolalar ruhiyati va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan axborotlarni tahlil qiladi, mahalliy ijodkorlarga milliy qadriyatlarimizga mos kontent yaratish uchun buyurtmalar beradi, soha uchun kadrlar tayyorlaydi. Bu ishda Qori Niyoziy nomidagi ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy yordam ko‘rsatishi ham muhim ahamiyatga ega.

Ammo bu masala faqat bitta markazning vazifasi bo‘lib qolmasligi, barcha tegishli vazirlik va tashkilotlar bu ishga hissasini qo‘shishi zarurligi alohida ta’kidlandi. Yurtimizdagi 900 ga yaqin teatr, madaniyat uyi, konsert zalari, 1,5 mingga yaqin sport inshooti, 200 ta oromgoh va 2 mingdan ortiq sayyohlik maskani imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish, joylardagi amfiteatr va sayilgohlarda har kuni madaniy tadbirlar, konsertlar, san’at ko‘rgazmalari, she’riyat kechalari o‘tkazish, poytaxtimizdagi Yangi O‘zbekiston bog‘ida ochiq osmon ostida musiqiy dasturlar tashkil etish, sport sohasida 6 million yoshni qamrab olish — bularning barchasi yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitishga, ularning ijodiy va jismoniy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

### Nazorat va mas’uliyat har qachongidan ham dolzarb

Yig‘ilishda belgilab berilgan vazifalar va tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish uchun maxsus shtab tuzilishi va bu jarayon bevosita Prezident nazoratida bo‘lishi islohotlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Tuman hokimlariga har oyda maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlari, maktab direktorlari va bog‘cha mudiralari bilan uchrashib, muammolarni joyida hal etish vazifasi yuklangani, shuningdek, ta’lim sohasi rahbarlarini sohaga oid bo‘lmagan yig‘ilishlarga jalb etmaslik haqidagi qat’iy ogohlantirish ham joylardagi rahbarlar mas’uliyatini oshirib, ularning bor e’tiborini ta’lim sifatini yaxshilashga qaratishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz raisligida o‘tgan ushbu yig‘ilish O‘zbekiston ta’lim tizimida yangi va yanada yuksak bir bosqichga qadam qo‘yilayotganidan darak. Belgilangan vazifalarning siddiqildan bajarilishi, har bir rahbar va xodimning o‘z ishiga vijdonan yondashishi, ota-onalar va keng jamoatchilikning faol ishtiroki yangi O‘zbekiston uchun munosib avlodni tarbiyalashdek buyuk maqsadga erishishda muhim omil bo‘ladi. Bu yo‘lda barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, farzandlarimizning porloq kelajagi uchun bor kuch va g‘ayratimizni ayamasligimiz kerak. Zero, ta’limga yo‘naltirilgan har bir sarmoya ertangi kunimiz, millatimiz istiqboli uchun qo‘shilgan bebaho hissdadir.

Jonibek ALIJONOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## Munosabat



## O‘zbekiston — Italiya:

# DO‘STLIK ALOQALARI OLIYGOHLAR HAMKORLIGINI HAM MUSTAHKAMLAMOQDA

Ayni kunlarda mamlakatimizga Italiya Respublikasi Bosh vaziri Jorja Melonining rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tmoqda. Ko‘hna Samarqand shahridagi bu tarixiy uchrashuv ikki davlatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va albatta, ta’lim sohalaridagi munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi kunda davlatlarimiz o‘rtasidagi ta’lim aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Italian tili yo‘nalishi ilk bor Samarqand davlat chet tillar institutida “Filologiya va tillarni o‘qitish: italyan tili” mutaxasssligi sifatida tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda bu yo‘nalish institutning muhim o‘quv-ilmiy markaziga aylangan. Shuningdek, oliygohda Italiyaning nufuzli oliy ta’lim muassasalari, xususan, Siyena xorijliklar universiteti, Florensiya universiteti,

Ka-Foskari universiteti, Napoli sharqshunoslik universiteti, Peruja xorijliklar universiteti hamda Italiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Mazkur oliygohlar bilan hamkorlik professor-o‘qituvchilar hamda talabalar almashinuvini ta’minlashda yaxshi samara berayotganini alohida ta’kidlash joiz. Bu, o‘z navbatida, institutda ilmiy-pedagogik salohiyat hamda ta’lim sifati oshishiga,

talaba va magistrlar dunyoqarashi kengayishiga xizmat qiladi. Joriy yilning o‘zida institutning 13 talabasi grant asosida stajirovka o‘tash uchun Peruja va Siyena xorijliklar universitetlariga yuborilmoqda.

Ispan va italyan tillari kafedrasida 7 nafar mahalliy o‘qituvchi, 4 nafar doktorant faoliyat yuritmoqda. Har yili Italiyadagi hamkor universitetlardan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar shartnomasi asosida dar berish uchun taklif etiladi. Bu esa nafaqat talabalar, balki mahalliy o‘qituvchilarning ham ilmiy-pedagogik salohiyati oshishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda “Filologiya va tillarni o‘qitish: italyan tili” yo‘nalishida 168 bakalavr, 3 magistrant tahsil olmoqda. Shuningdek, 190 dan ortiq talaba italyan tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘rganmoqda. Institutda italyan tiliga bo‘lgan bunday qiziqish, albatta, ikki davlat, ikki xalq o‘rtasidagi hamkorlik va madaniy aloqalar mevasidir.

1999-yilda Italiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan Samarqand davlat chet tillar institutida Italian tili va madaniyati markazi tashkil etilgan edi. Bugungi kunda markazda Italiyadan kelgan professor-o‘qituvchilar hamkorlikda faoliyat yuritmoqda.

Elchixona tomonidan ko‘rsatilayotgan doimiy ko‘mak va grant dasturlari oliygohdagi ayni yo‘nalishning rivojida muhim omil bo‘lib xizmat qilayotir. Xususan, 2020-2021-o‘quv yilida 170,5 million so‘m, 2022-2023-o‘quv yilida 10 ming yevro miqdoridagi beg‘araz grantlar ajratildi. Ushbu mablag‘lar darslik va o‘quv qo‘llanmalar xarid qilish, o‘qituvchilarni rag‘batlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirildi.

Har yili talabalarimiz Italiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi tomonidan o‘tkaziladigan “Italian tili notiqlik san’ati” tanlovida faol ishtirok etib kelyapti. G‘oliblar hamda faol ishtirokchilarga Italiya universitetlarida malaka oshirish va qisqa muddatli

stajirovkalarda qatnashish imkoniyati berilmoqda. Bunday tashabbuslar yoshlarimizning xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Shuningdek, Napoli sharqshunoslik universiteti bilan imzolangan hamkorlik shartnomasi doirasida oliygohda har yili yozgi maktablar tashkil qilinib, unda Italiyadan kelgan talabalar faol ishtirok etmoqda. Bu esa ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bilan birga madaniy almashinuv va o‘zaro anglashuvni mustahkamlaydi. Bunda turli italyan filmlari, bayram tomoshalari, konsert dasturlari, kitob taqdimotlari hamda boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish an’anaga aylangan.

2022-2024-yillar davomida Siyena xorijliklar universitetiga jami 4 nafar italyan tili o‘qituvchisi malaka oshirish kurslariga yuborildi. 2024-yilga kelib mazkur universitet bilan hamkorlikda muassasamizda “CHILS” (Certificazione della conoscenza della Lingua Italiana) xalqaro til bilish sertifikati beradigan test-imtihon tizimi joriy etildi. Bugungi kunda Samarqand davlat chet tillar instituti mamlakatimizda ushbu test imtihonlarini o‘tkazish bo‘yicha vakolatga ega bo‘lgan yagona markazdir.

Samarqand davlat chet tillar instituti va Italiya oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi mustahkam ilmiy aloqalar O‘zbekiston — Italiya strategik hamkorligining yorqin ifodasi sifatida ta’lim tizimida o‘z aksini topgan. Mazkur hamkorlik talabalarning xorijiy tilni o‘rganishi bilan chegaralanib qolmay, yosh avlodni global ilm-fan maydoniga yetaklovchi vositaga ham aylanib bormoqda.

Bahodir XOLIQOV,  
Samarqand davlat chet tillar instituti rektori





2025-yil 29-may, 108-son

# MARDLAR MANGU YASHAYDI, JASORAT UNUTILMAYDI

**Yurt sarhadlari osoyishtaligini asrash, daxlsizligini ta'minlash — mardlar ishi. Bu yo'lda halok bo'lgan vatan o'g'lonlari — jasur harbiylarimizni yodga olmoq esa barchamizning insoniylik burchimizdir. Zero, mardlar jasorati hech qachon unutilmaydi. 2000-yilning yoz oylarida bir guruh jangarilar yurtimiz chegaralarini buzib, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari hududlariga kirgan va qonli to'qnashuvlar yuz bergan edi. O'sha shafqatsiz janglarda vatanimizning ko'plab dovyurak, mard yigitlari qatnashdi va ayrimlari qahramonlarcha halok bo'ldi. Halok bo'lganlar orasida Sirdaryo o'g'loni Elomon Otajonov ham bor edi.**

U 1978-yil 17-sentabrda Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida tug'ilgan. Besh farzandning to'ng'ichi edi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida shartnoma asosida xizmat burchini o'tayotgan vaqtda, ya'ni 2000-yilning 11-avgust kuni Surxondaryo viloyati Uzun tumanida bo'lgan jangovar harakatlarda dushman o'qidan yaralanib halok bo'lgan. Katta serjant Elomon Otajonov yurt himoyasi yo'lida ko'rsatgan mardligi uchun vafotidan so'ng "Jasorat" medali bilan mukofotlangan.

## “Bir armonim bor...”

Yaqinda Elomon Otajonovning onasi Yanglish opa bilan suhbatlashish uchun Mudofaa vazirligiga qarashli hospitalga bordim. Onaxon u yerda sog'lig'ini tiklayotgan ekan.

Yanglish Otajonova bilan Prezidentimiz 2023-yil mart oyida Surxondaryo viloyatida marhum askar va ofitserlarning oila a'zolari, yaqinlari bilan uchrashganidan so'ng opaning dil so'zlarini yozib olish jarayonida tanishgan edim. Yaqinda u qo'ng'iroq qilib: “Marhum o'g'lim Elomonjonga tegishli bir armonim bor. O'zi o'qigan maktabga farzandimning nomi berilsa, uning jasorati yoshlarga ibrat va namuna bo'larmidi”, dedi.

Shu qo'ng'iroq sabab onaxonning oldiga borib, u bilan uzoq suhbatlashdim. Yanglish opaning g'amgin chehrasiga, ma'yus ko'zlariga boqar ekanman, hech bir ona bolam deb bo'zlab qolmasin degan fikr xayolimdan o'tdi. Uning qalbidagi adoqsiz sog'inch, ko'nglidagi kemtiklik va yashirin iztiroblarning nuqsi ko'z qarashlarida qotib qolganday tasavvur uyg'otdi



o'rnatilgan. O'g'lim xotirasiga bag'ishlab turli sport musobaqalari va tadbirlar o'tkazib turiladi. Buning uchun minnatdorman. Ammo qani edi, shu o'zi o'qigan maktabiga nomi ham berilsa, ko'nglimdagi armonim yuzaga chiqardi. Ilohim, yurtimizda hamisha tinchlik bo'lsin, zaminimizga fayzu baraka yog'ilsin!

Elomonning otasi Xolmurod aka va onasi Yanglish opa hozir nafaqada. Ikki o'g'il va ikki qizni kamolga yetkazib, o'n nevaraning suyuqli bobo-buvisi bo'lib, bir-biriga suyanib umrguzaronlik qilyapti.

## “Mendan xavotir olmanglar”

Elomon 1996-yili Sirdaryo tumanidagi 2-umumta'lim maktabini a'lo baholarga tamomlaganidan so'ng oliy o'quv yurtida tahsilni davom ettirish uchun poytaxtga keladi. Lekin o'qishga kirish bali yetmay, qishlog'iga qaytib ketadi. Vaqtini bekor o'tkazmaslik uchun avval xo'jalikda ishlayotgan dadasiga ko'mak berib, dala yumushlari bilan band bo'ladi. 1997-yilda esa ota-onasiga bildirmay, tuman mudofaa ishlari bo'limiga borib, Qurolli Kuchlar safiga jo'natishlarini so'rab ariza yozadi.

Bu xabarni eshitgan onasi “Nega bolam bizlar bilan maslahatlashmadi?” deya bir oz ranjiydi. Lekin turmush o'rto'gi Xolmurod aka “Onasi, xafa bo'lma, axir har bir yigit vatani oldidagi yigitlek burchini o'tashi kerak. Men ham o'taganman, keyinroq ukalari ham o'taydi, sen qaytaga xursand bo'l, o'z fikriga ega shunday o'g'ling borligiga” degan so'zlar bilan ayolini yupatadi.

Elomon Otajonov armiya safida bir yarim yillik xizmat burchini o'tagach, Qurolli Kuchlar safida qolishga qaror qiladi. Serjantlar tayyorlash maktabini tugatish arafasida Mudofaa vazirligiga qarashli maxsus bo'limga qabul uchun tanlov o'tkaziladi. U bu tanlovda qatnashadi va yuqori natijalarni ko'rsatadi. 2000-yilning yozida esa ta'lim olib, yaqinlarini ko'rish uchun uyiga qaytdi.

O'g'lim kutilmaganda uyga kirib kelganida shoshib qoldim. Uni mahkam bag'rimga bosib yig'lab yubordim. O'sha vaqtda otasi ikkimizning quvonchimiz cheksiz edi, — deya hikoyasini davom ettirdi Yanglish opa. — Bir-ikki kun o'tgach, ko'nglini bilmoqchi bo'ldim. “Sen tengilar uylanib, farzandli bo'lyapti, bolam. Ko'ngil qo'yganing bo'lsa, ayt, darrov sovcilikka boraylik, bo'lmasa o'zim senga mos, ko'hlikkina qizni ko'z ostimga olib qo'rganman”, dedim.

U esa “Onajon, Xudo xohlasa, albatta, to'y qilamiz, oldin oliy ma'lumotli bo'lay, keyin ishlab ozroq pul jamg'aray. Yaxshi kunlarimiz hali oldinda”, dedi.

Oxirgi marta ta'tilga kelganida dadasiga “Men xizmat safariga ketyapman, sizlar bilan xabarlasha olmasligim mumkin, lekin xavotir olmanglar, yaxshilab duo qilib yo'ysangizlar bo'ldi”, degandi. Ota-onu duosi hamisha ijobat bo'ladi deyishadi. Ammo Yaratganning yozig'i har nedar ustun ekan...

Ba'zan judayam sog'inib ketaman, ko'rgim keladi. Oradan 25 yil o'tyapti, ammo o'g'limning vafotiga sira ko'nika olmadim. Vaqt davolaydi, vaqt shifo deyishadi. Vaqt o'tgan sari dardim yangilanib, uning so'nggi so'zlarini eshita olmaganim yuragimga og'ir bir tosh bo'lib botib boryapti. Biroq o'z jonini yurti uchun baxshida qila olgan botir o'g'lim bor degan o'y menga hamisha mador beradi. Elomonim juda yosh keddi, atrofga quyosh yanglig' nur sochib kedti.

## YANGI O‘ZBEKISTON

O'tgan yillar ko'ngil yarasiga malham deyishadi. Balki bu bor gapdir. Elomonning onasi bilan suhbatlashar ekanman, bunga yana bir bor amin bo'ldim. Yurakni o'rtab, dilni og'ir yukday ezib turadigan farzand dog'ini hech bir onaga ko'rsatmasin.

Elomon Otajonov eng navqiron chog'ida xizmat vazifasini vijdonan bajarib, so'nggi nafasigacha o'z burchiga sodiq qolib, jonini fido qilgan o'zbekning bek o'g'loni. U kabi jasur o'g'lonlar yodi xalqimiz qalbidagi abadiydir, Zero, mardlar o'lmaydi, jasorati esa qalblarda mangu yashaydi.



## “Men o'lyapman, o'rtoq komandir, oilamdan xabar olib turinglar”

Maqolani tayyorlash jarayonida Elomon Otajonov bilan bir safda xizmat qilgan quruldosh do'sti, xaziradagi serjant Bobomurod Nurotov bilan ham suhbatlashdim.

— Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlariga uyushtirilgan terrorchilar hujumida maxsus operatsiyalar batalyonida xizmatda bo'lganman. Maxsus guruhimizga Kishut tog' oralarida yashirinib olgan dushmanlarni topib, bartaraf etish vazifasi topshirilgan edi. Bizning batalyon maxsus operatsiyalarni bajarish uchun tayyorgarlik ko'rardi va shu bois, unga chiniqqan, tekzor qaror qabul qiluvchi yosh yigitlar saralab olingandi, — deydi Bobomurod Nurotov. — Bu voqealarni eslashning o'zi azob. Ko'z oldingizda do'stingiz o'qdan yaralanib, joni uzilsa, bu dahshat... Tog'li hududlardagi 5 ta qishloqni jangarilar egallab olgan edi. Necha mard yigitlarning boshini yedi u bosqinchi mal'unlar. Safdoshimiz Elomon Otajonov ko'rsatgan jasoratini esa hatto kinofilmlarda ham tasvirlab berish qiyin. Elomon bizga yo'l boshchi edi, boshlig'imiz sifatida dushman bilan juda yaqin masofada jang qilgan. Harbiy guruhimiz qayerga yo'l olsa, u yo'l ko'rsatar, dushman pistrimsa bor-yo'qligi haqida bizga xabar berib turardi. Bir vaqt ratsiya orqali o'q yegani haqida aytdi, ammo o'sha holatda men jangchilarimizga topshiriqlar berib, dushmanning qayerda joylashganini aytishga ulgurdi. Tasavvur qiling, joni chiqayotganida ham u o'z qasamiga sodiq qolib, vazifani muvaffaqiyatli o'ta etishga harakat qildi. Og'ir yaralangan Elomon juda ko'p qon yo'qotgani bois, vertolyotga ham yetmay joni uzildi.

Uning oxirgi so'zlari hamon qulog'im ostida jaranglaydi: “Men o'lyapman, o'rtoq komandir, iltimos, ota-onam, aka-singillarimdan xabar olib turinglar”. Elomon Otajonovning ota-onasi holidan xabar olib turibmiz. Jangda halok bo'lgan safdoshlarimizning oila a'zolari bilan doimiy aloqadamiz. Vatanimiz, xalqimiz bu

farzandlarini hech qachon unutmaydi. Lekin shunday jasoratli, mard do'stlarimning o'limi yuragimni azoblayveradi va bir o'y meni sergaklikka chorlaydi. Bu dunyoda yurtimiz tinchligini, xalqimiz farovonligini ko'ra olmaydiganlar haliyam bor. Shuning uchun hamisha va har doim sergak hamda ogoh bo'lishimiz, ona diyorimizni ko'z qorachig'iday asrashimiz kerak!

Asli Andijonning mashhur polvonlar sulolasidan bo'lgan Bobomurod Nurotov o'zi haqidagi suhbatni kamtarlik bilan keyinga qoldirdi:

— Singlim, olovli urushning qismatimdagi iztirobli achchiq voqealarini boshqa safar aytib berarman...

## Elning er o'g'loni

Elomon tug'ilganda otasi Xolmurod aka o'g'lim el omonligi, obodligi, osoyishtaligi yo'lida xizmat qilsin, ismiga munosib farzand, suyanchimiz bo'lsin deb ich-ichidan niyat qilgan ekan.

Yaqinlari orzu qilgandek yigit bo'lib kamolga yetgan Elomon harbiy xizmatga ketgunga qadar ota-onasiga yaqin ko'makchi, ro'zg'or ishlarida kamarbasta bo'lgan. Dalada ular bilan yonma-yon mehnat qilgan. Ukalari va singillariga sirdosh, himoyachi edi. Tug'ilgan kuniga bir oy qolganida esa o'sha mash'um voqea sodir bo'lib, o'z ismiga monand el omonligi va yurt tinchligi yo'lida yoshgina jonini fido qildi.

Elomon Otajonovning ukasi Yusuf Otajonov akasining sharafli o'limidan so'ng o'zining harbiy bo'lish haqidagi fikrini qat'iy amalga oshirdi. 2000-yilda u ham harbiy xizmatda edi. “Akangning ahvoli og'ir, tez yetib kelishning kerak” degan xabarni eshitgan zahoti ming bir hadik va xavotirda yo'lga chiqqan Yusuf akasining motam marosimi ustiga kirib keladi...

Yusuf muddatli harbiy xizmatini o'tab bo'lgach, akasi va o'zining orzusini amalga oshirish istagida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o'qishga kirdi.

O'qishni tamomlagach, uzoq yillar vatan himoyasi yo'lida faoliyat ko'rsatdi. Bugun esa nafaqada. Ota-onasi, oilasi, farzandlari va nevaralari davrasida akasi Elomon haqidagi bolalik xotiralarini so'zlaydi, yurti uchun jonini qurbon qilgan jasur o'g'lonning ukasi ekanidan faxrlanib yashaydi.

## Xalq o'z qahramonlarini yodidan chiqarmaydi!

Mardlar jasorati hech qachon unutilmaydi. Chunki yurtning tinchligini asrash, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash oson ish emas. Bu yo'lda halok bo'lgan vatan o'g'lonlari, jasur harbiylarimizni yodga olmoq insoniy burchimizdir.

Aslida, bu omonat dunyoda odamzodning hayoti qancha yil yashagani, boyligi, lavozimi bilan o'lchanmaydi. Inson uchun qancha emas, qanday umr ko'rganini, qanday yashagani muhim. O'z jonini vatan osoyishtaligi, el farovonligi yo'lida qilingan mard insonlar hayoti ibrat kitobining xotira sahifalarida muhrlanib qoladi.

Maqolani Prezidentimizning joriy yil may oyida G'alaba bog'ida “Millat fidoyilari” yodgorligining ochilish marosimida aytgan so'zlari bilan yakunlamochimkan: “Mustaqillik yillarida aziz jonlarni ayamasdan, bizing tinchligimiz va osoyishtaligimizni asrash yo'lida qahramonlik ko'rsatgan mard va jasur farzandlarimizning muborak xotirasi oldida chin dildan ta'zim qilaman. Biz va takror aytishdan charchamayman: tak bunday qahramon o'g'lonlarimizni hech qachon unutmaymiz. Ular doimo biz bilan birga yashaydi. Vatanimizga har tomonlama munosib qahramon o'g'lonlarimizga shon-sharaflar bo'lsin!”.

## Gulichehra DURDIYEVA, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

## Moziy — haqiqat tarozisi

# JONBO‘ZSOYLIK VENGERLAR

**Davlatimiz rahbari yaqinda rasmiy tashrif bilan Vengriyada bo'lib qaytdi. Istiqlol yillarida o'zbek va venger xalqlari o'rtasida nafaqat iqtisodiy, balki madaniy-ma'rifiy aloqalar ham keng rivojlana boshladi. Masalan, o'tgan yil oktabrda Lakitelek shahrida mutafakkir bobomiz, ulug' shoir Alisher Navoiy buyusti ochildi. Joriy yilning yanvar oyida Budapeshtda o'zbek kinosti kunlari o'tkazildi.**

Rasmiy tashrif chog'ida kelgusi yilni O'zbekiston va Vengriya madaniyati yili deb e'lon qilish taklifi bildirildi. Vengriya davlat opera teatri sahnasida “Lazgi” baletini sahnalashtirish va Budapeshtdagi Etnografiya muzeyida o'zbek madaniyati ko'rgazmasini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilmogda.

Shuningdek, ikki mamlakatda tan olinadigan diplomlar berish tizimini joriy etish va mamlakatimizda Vengriya oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Aslida, o'zbek va venger xalqlarining qardoshlik, do'stlik, madaniy va adabiy aloqalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Venger-mojar xalqining ildizlari turkiy ulus shajarasidan boshlanishini ko'pchilik yaxshi biladi. Ayniqsa, bu ikki xalqning milliy an'ana va qadriyatlari, kurash va ko'pkari kabi qadimiy xalq sport o'yinlari, mardlik, mehnatsevarlik, kengfe'llik, mehmondo'stlik fazilatlarini hamda milliy qadriyatlarini, an'analari bir-biriga yaqin.

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Jonbo'zsoy mahallasi Guliston qishlog'ida asl



kelib chiqishi venger yoki mojarlarga borib taqaluvchi bir guruh aholi yashaydi.

— 1966-yilda uyimizga Vengriyadan etnograf olim Tot Kibor keldi, — deydi qishloqdagi 42-umumta'lim maktabining faxriy

o'qituvchisi Xudoyor Boyqobilov. — O'sha yillarda otam Jonquvvat bobo jamoa xo'jaligida kassir bo'lib ishlardi. Olim qishloqdagi mojar urug'iga mansub odamlarni izlab kelgan ekan. Uyimizdan unga maxsus xona ajratib berdiki.

Olim qariyb bir oy qishlog'imizda yashovchi, o'zlarini mojar urug'idan deb biluvchi xonadon egalari genofondini tahlil qilib, barmoq izlarini oldi va ular bilan ko'p suhbatlashdi. Olim qaytib keltgach, “Sovet O'zbekistoni” gazetasida uning “O'zbekistonlik vengerlar” degan kattagina maqolasi e'lon qilindi.

Men o'sha yillarda maktab o'quvchisi edim va otamdan olimning biznikiga nega kelgani xususida deyarli har kuni so'radim. Otam savollarimga qisqa qilib, vengerlar aslida madyarlar deb atalishini, biz bilan bir urug' bo'lganini aytib bergandi.

Oradan ancha yillar o'tib, ya'ni 2012-yilning yozida qishlog'imizga yana Vengriyadan elshunos olim Androsh Birojoy keldi. Men undan Tot Kibor haqida so'radim. Androsh o'sha olim uning ustozini ekanini, 84 yoshida vafot etganini aytib berdi. Androsh qo'shnimiz Xudoyqul Qurbonovning xonadonida yashab, u ham xuddi ustoz kabi mojar urug'iga mansub odamlardan turli tahlillar oldi, suhbat qurdi. Androsh qaytar chog'ida Xudoyqulga jahon vengerlari qurultoyiga taklifnoma berdi. Xudoyqul Qurbonov o'sha yilning 5-17-avgust sanasida Vengriyada bo'lib, katta taassurotlar bilan qaytib keldi.

— 2022-yilning yozida meni ham Vengriyaga taklif qilishdi, — deydi nafaqadagi haydovchi Eshonqul Jo'rayev. — Barcha xarajatlar Vengriya hisobidan ekan. Bordim va naq o'n besh kunning qanday tez o'tib

ketganini sezmay qolibman. Taassurotlarim bir olam. Eh, qani edi yozuvchi bo'lganimda, u joyda ko'rganlarimni kitob qilib yozgan bo'lardim. Qaytar chog'imizda har birimizga maxsus paketga joylangan kitoblar to'plamini sovg'a qilishdi. Kitoblardan biri mojar xalqining ozodlik kuychisi va kurashchisi Shandor Petyofning she'rlar to'plami ekan. Qolaversa, men o'sha yerda yurtdoshimiz, asli Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't shahridan bo'lgan diplomat, olim va tarjimon Mulla Is'hoqning mojaristonlik mashhur sayyoh va olim Vamberi bilan birga Budapeshtga borgani, qisqa muddatda mojar tilini mukammal o'rganganini eshitdim. Mulla Is'hoq Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasida ishlash bilan birga mashhur venger shoiri Yanosh Aranning “Ajoyib suyg'unning sayohati” dostonini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan ekan. Jahongashta yurtdoshimiz mojar qizga uylanib, farzandli bo'lgan va 1892-yil vafot etgan. Yaqinda menga yana turkiy xalqlarning 2026-yilda Vengriyada bo'ladigan xalqaro qurultoyiga taklifnoma keldi.

Ha, o'zbek — mojar aloqalari ham siyosiy, ham ijtimoiy-madaniy sohalarida shu taxlit yangi bosqichga ko'tarilib bormogda.

## O'rolboy QOBIL, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:  
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas'ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546.  
36390 nusxada bosilgan.  
**Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.  
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov  
Musahhih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrhisab ko'chasi, 85-uy

O‘Z a yakuni — 22:15 Topshirildi — 22:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05